

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 74 (1673), 2026-yil 15-aprel, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEV NOMIGA QOZOG‘ISTON PREZIDENTI QOSIM-JOMART TOQAYEV DAN MAKTUB KELDİ:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev Jabobi Oliylariga

Qadrlı Shavkat Miromonovich!

Nafaqat Markaziy Osiyo, balki butunjahon sivilizatsiyasi durdonasi bo‘lgan qadimiy Buxoro shahriga amaliy tashrifim chog‘ida ko‘rsatgan alohida mehmondo‘stlik va samimiyat uchun Sizga chin dildan minnatdorlik bildiraman.

O‘zbekiston bu bebaho boylikni asrab-avaylab, boyitib, buyuk o‘tmishni zamonaviy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtirib kelayotgani meni hayratga soldi. Buxoroning bugungi go‘zal qiyofasi Sizning Yangi O‘zbekistonda barpo etishga qaratilgan oqilona va bunyodkorona siyosatingiz yuksak samaradorligining yaqqol ifodasidir.

Puxta o‘ylangan tadbirlarga boy tashrifning o‘zi, shubhasiz, foydali bo‘ldi. Nazarimda, Buxorodagi bir kunlik muzokaralar uzoq muddatli siyosiy samarasi jihatidan rasmiy tashrifdan aslo qolishmaydi.

Uchrashuvimiz Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasidagi ko‘p qirrali aloqalarni yanada mustahkamlash uchun yangi uqqlarni ochdi, davlatlararo strategik hamkorlikni yangi mazmun bilan boyitishga xizmat qiladi.

Ostonaga qaytgach, erishilgan va tasdiqlangan kelishuvlarni amalga oshirish, shuningdek, mamlakatimizning turli sohalardagi foydali tajribasini hisobga olish bo‘yicha aniq topshiriqlar berdim. “Toza havo” qo‘shma tashabbusiga alohida ahamiyat beraman.

Ishonchim komilki, biz qo‘ygan vazifalarning sifatli bajarilishi Qozog‘iston — O‘zbekiston strategik sherikligi va ittifoqchiligini yangi cho‘qqilarga olib chiqishga xizmat qiladi.

Qozog‘iston uchun katta madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan arxiv materiallarini taqdim etganingiz uchun alohida minnatdorlik bildiraman. Bu harakat Sizning bag‘rikengligingiz va qozoq xalqiga bo‘lgan iliqli munosabatigiz, qardosh mamlakatlarimiz tarixini munosib e‘tirof etishingizdan dalolat beradi.

Hurmatli Shavkat Miromonovich! Sizga va oilangizga chin qalbidan sihat-salomatlik va baxt-saodat, Qozog‘istonning abadiy do‘sti, ittifoqchisi va strategik sherigi bo‘lgan Yangi O‘zbekistonda barpo etishda yangi muvaffaqiyatlar tilayman.

Hurmat bilan,

Qosim-Jomart TOQAYEV,
Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti

O‘ZBEKISTON MADANIYAT VA SAN‘AT XODIMLARIGA

Qadrlı do‘stlar!

Avvalo, siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda butun san‘atsevar xalqimizni 15-aprel — Madaniyat va san‘at sohasi xodimlari kuni bilan chin qalbidan muborakkob etaman.

Ushbu qutlug‘ ayyomda o‘zining betakror iste‘dodi, bilim va mahorati bilan el-yurtimizga sidqidildan xizmat qilib kelayotgan san‘at ustalari va yosh ijrochilarga, barcha soha xodimlariga fidokorona mehnati uchun samimiy minnatdorlik bildiraman.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda qatorli madaniyat va san‘at tizimini zamonaviy talablarga asosida rivojlantirish bo‘yicha ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmog‘da. Natijada sohaning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanib, xodimlarning ijodiy mehnati munosib rag‘batlantirilmog‘da. Teatr, kino, muzey va madaniy tadbirlar, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati izchil yaxshilanmog‘da.

Zamonaviy boshqaruv mexanizmlari joriy etilib, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi ijodiy loyihalar, raqamli texnologiyalar va ilg‘or tajribalar amaliyotga tatbiq etilayotgani, madaniy kontent yaratish ko‘lamini kengayitib berayotgani madaniyat muassasalari faoliyatida samaradorlik va jozibadorlikni yanada oshirishga xizmat qilmog‘da.

Keyingi yillarda yurtimizda 2 ta teatr, 19 ta madaniyat markazi, 16 ta muzey, 20 ta musiqa va san‘at maktabi hamda ushbu yo‘nalishda 5 ta oliygoh tashkil etildi, ko‘plab muassasalar zamonaviy jihozlarga bilan ta‘minlandi, 125 ta tarixiy-madaniy meros obyektida ularni asrash va tiklash bo‘yicha zarur ishlar amalga oshirildi.

O‘tgan yili tasviriy va amaliy san‘at sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha alohida qaror qabul qilindi. Toshkent shahrida O‘zbekiston Milliy muzeyi binosi qurilishi boshlandi. Joriy yilda esa Markaziy ko‘rgazmalar zali, Badiiy ko‘rgazmalar direksiyasi fondining binosi, Pavel Benkov nomidagi rassomlik maktabida qurilish va ta‘mir ishlar olib boriladi, soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha zarur choralar ko‘riladi.

Yana bir muhim jarayon — o‘zbek madaniy diplomatiyasi izchil rivojlanmog‘da. Nufuzli xalqaro forumlar, tanlovlar, festivallar hamda madaniyat kunlari muntazam o‘tkazib kelinmog‘da. Xususan, o‘tgan yili Samarqand shahrida UNESCO Bosh konferensiyasining sessiyasi, Buxoroda Birinchi xalqaro zamonaviy san‘at biyennalesi, Nukusda Orol madaniyati sammiti, Xorazmda Turkiy dunyo madaniyat forumi, Toshkentda esa Markaziy Osiyo va O‘zbekiston madaniyat va tarixining birinchi uchrashuvi yuqori saviyada tashkil etildi.

Eng muhimi, Vatanimizning san‘at sohasida xalqaro jarayonlardagi ishtiroki kengayib, nufuzi ortib bormog‘da.

O‘zbekistonlik san‘atkorlarning Yevropadagi nufuzli madaniyat maskanlaridagi chiqishlari xorijlik san‘at muxlislarida katta qiziqish uyg‘otmog‘da. Bu haqda so‘z yuritganda, Avstriyaning Zalsburg shahridagi Grosses Festspielhaus sahnasida O‘zbekiston Milliy baleti guruhi tomonidan “Lazgi. Muhabbat va qalb raqsi” baleti namoyish etilganini ta‘kidlash lozim.

Shu yil 9-aprelda yana bir yirik san‘at maskani — Musikverein sahnasida Sohibqiron Amir Temur bobomizning 690 yillik tavallud sanasiga bag‘ishlangan musiqali opera asarining taqdimoti o‘tkazildi.

Milliy kino san‘atimizni rivojlantirish, xususan, “Tirik tarix” turkumida g‘oyaviy va badiiy yuksak asarlar yaratish borasidagi ishlar dastlabki natijalarni bermog‘da. O‘tgan yili davlat buyurtmasi asosida 123 ta kinofilm tayyorlanib, tomohabinalar e‘tiboriga havola etildi.

O‘tgan yilning o‘zida sohada uzoq yillardan buyon mehnat qilib kelayotgan 35 nafar xodim uy-joy bilan ta‘minlandi. Madaniyat muassasalari xodimlari ish haqi o‘rtacha 35 foizga oshirildi. Dramaturglar uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy, yosh rejissyorlar uchun Bahodir Yo‘ldoshev, yosh xonandalar uchun Botir Zokirov nomidagi mukofotlar hamda mahalliy va xorijiy ijodkorlar uchun “Kelajak merosi” xalqaro mukofoti taqdim etib kelinmog‘da.

Muhtaram vatandoshlar!

Bugungi kunda madaniyat va san‘at sohasini ma‘naviy tarbiya vositasi va kreativ iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida rivojlantirish, ijodiy industriyani qo‘llab-quvvatlash, madaniy xizmatlar bozorini taraqqiy ettirish, san‘at mahsulotlari eksportini kengaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmog‘da. Yangi tashkil etilayotgan Kreativ industriya parki ayni shu maqsadlarga xizmat qiladi. Biz bu borada katta marra olib, 2030-yilgacha kreativ iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 5 foizga yetkazamiz.

Albatta, bu ulkan reja va tashabbuslarni amalga oshirishda siz, jonkuyar va fidoyi insonlarning o‘rni beqiyosdir. Sizlarning bilimingiz, tajribangiz va ijodiy salohiyatingiz milliy madaniyatimizni yangi bosqichga olib chiqishga ishonchim komil.

Biz bundan buyon ham sohani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ijodiy va texnik xodimlar mehnatini munosib qadrlashga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Sizlarni bugungi kasb bayramingiz bilan yana bir bor chindildan tabriklab, barchangizga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, yangi ijodiy yutuqlar, xonadonlaringizga tinchlik va fayz baraka tilayman.

Shavkat MIRZIYOEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

UY-JOY QURILISHI VA URBANIZATSIYA SOHASIDAGI USTUVOR VAZIFALAR, TAKLIF VA TASHABBUSLARGA ALOHIDA E‘TIBOR QARATILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 14-aprel kuni uy-joy qurilishi va urbanizatsiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Tadbirda joylardagi studiyalardan videoloqa orqali 500 dan ziyod tadbirkor, quruvchi, loyihachi, arxitektor va shaharsozlar ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari barcha tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish bo‘yicha belgilangan katta marralarga erishishda qurilish sohasi alohida o‘rin tutishini ta‘kidladi. Tahlillarga ko‘ra, qurilishga kiritilgan har 1 dollar

iqtisodiyotga 2-3 dollarlik samara keltiradi, sohada yaratilgan bitta ish o‘rni esa boshqa tarmoqlarda yana 5 tagacha ish o‘rningini paydo bo‘lishiga xizmat qiladi.

So‘nggi to‘qqiz yilda mamlakatimizda qariyb 10 mingta yangi qurilish korxonasi ish boshladi. Aylanmasi 1 trillion so‘mdan oshgan 20 ta, 100 milliard so‘mdan yuqori ko‘rsatkichga chiqqan

365 ta yirik kompaniya shakllandi. Loyiha tashkilotlari soni 2 mingdan oshib, ularning 650 dan ziyodi xalqaro sertifikat oldi.

Shu davrda qurilish sohasida ruxsat berish bosqichlari 3 karra, muddatlar 4 karra qisqartirildi. 420 ta shaharsozlik norma hamda qoidalari birlashtirilib, eskilari bekor qilindi va 140 ta yangi norma va qoida tasdiqlandi.

Natijada o‘tgan yillar mobaynida 210 million kvadrat metr bino-inshoot, 647 ming xonadonli 15 mingdan ortiq ko‘p qavatli uy-joy barpo etildi. Qurilish ishlarining hajmi 2016-yildagi 30 trillion so‘mdan o‘tgan yili 314 trillion so‘mga yetdi. Bugun qurilish, qurilish materiallari va ularga yondosh sohalarda 3,5 million aholi band.

▶ Davomi 2-beta



Yangi O‘zbekiston ruhi

TEMUR TUZUKLARI: DAVLATNI QONUN, JAMIYATNI ILM, TARTIBNI ADOLAT USHLAB TURADI

Insoniyat tarixida shunday manbalar borki, ularni o‘qish o‘tmishni eslash emas, balki kelajakni anglash demakdir. “Temur tuzuklari” shunday asarlardan biri. U bir hukmdorning shaxsiy tajribasidan iborat bo‘lmay, unda davlat qanday qurilishi, jamiyat qanday yuksalishi va taraqqiyot qanday ta‘minlanishi haqidagi mukammal tafakkur mujassam.

Asarni faqat bir hukmdorning ko‘rsatmasi, bir davrning yodnomasi yoki saroy odobi haqidagi matn sifatida o‘qish uning haqiqiy qudratini kamaytirish bo‘ladi. Aslida, bu asar davlat qanday qurilishi, jamiyat qanday uyg‘unlashishi, ilm qanday qadr topishi va adolat qanday amalga aylanishi haqidagi siyosiy tafakkurning pishiq bayonidir. Amir Temurning buyukligi jangda emas, tizimda, ilmiy resursga aylantirganida, qonunni ustun qo‘yganida va madaniyatni davlat siyosati darajasiga ko‘targanida namoyon bo‘ladi.

Amir Temurni faqat sarkarda sifatida qabul qilish tarixda adolatsizlik bo‘ladi.

U, avvalo, davlat tafakkurini tartibga solgan siyosatchi edi. Uning qudrati hudud kengligi, hukm aniqligi, qo‘shin sonida bo‘lmay, qaror mantig‘ida, harbiy kuchda emas, tartibda edi. Shuning uchun Temur tuzuklarini o‘qir ekanimiz, ko‘z oldimizda davlatni qon tomirlarigacha tushungan mafkuraviy rahbar gavdalanadi. Asarning mazmunida davlatchilik, ilm-fan, madaniyat, adolat va inson qadri bir-biridan uzilmay, aksincha, yagona sivilizatsion za‘njimning halqalari sifatida ifodalangani bejiz emas.

▶ Davomi 3-beta

O‘ZBEK SHAXMATI FENOMENI



Iftixor

JAVOHIR SINDOROV SHAXMAT BO‘YICHA 2026-YILGI NOMZODLAR TURNIRIDA MUDDATIDAN OLDIN G‘ALABA QOZONDI

Bir necha ming yillik tarixga ega jahon shaxmatida o‘zidan munosib iz qoldirishning uddasidan chiqqanlar, taajjubki, u qadar ko‘p emas. Bugungacha shaxmat tojiga ega chiqib, mutlaq jahon chempioni degan nomga sazovor bo‘lganlar esa bor-yo‘g‘i 18 nafarni tashkil etadi. Ayni kunda o‘zbek o‘g‘loni ham ushbu unvon uchun amaldagi jahon chempioni bilan yakkama-yakka bahsga kirishishga hozir. Bunday imkoniyatga ega chiqish uchun esa o‘ta murakkab, og‘ir sinovlardan o‘tish talab etiladi.

O‘zbekistonlik yosh xalqaro grossmeyster, jahon kubogi sohibi Javohir Sindorov kecha ushbu yo‘ldagi oxirgi, eng qiyin bosqich — 2026-yilgi Nomzodlar turnirida muddatidan oldin g‘alabikka erishib, amaldagi shaxmat toji egasi hindistonlik Gukesh Dommaraju bilan dona surish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. Musobaqa yakuniga bir tur qolganida asosiy ta‘qibchisi niderlandiyalik grossmeyster Anish Giri bilan murakkab qarama-qarshilikda durang natija qayd etdi hamda 13 imkoniyatdan 9,5 ochko jamg‘argan holda oradagi ikki ochkolik farqni saqlab qolib, turnir mobaynidagi dominant

yetakchiligi tasodif emasligini yana bir bor tasdiqlab qo‘ydi.

Umuman, Kipr mezbonligida o‘tgan bu galgi turnir o‘ta yuqori raqobat, keskin intellektual kurash va tarixiy natijalar bilan yodda qoldi. Sovrin jamg‘armasi 700 ming yevroni tashkil etadigan ushbu musobaqa dunyo reytingidagi sakkiz nafar eng kuchli grossmeysterlarni bir maydonga jamladi. Hamyurtimiz, jumladan, Anish Giri, Fabiano Karuana, Hikaru Nakamura, Rameshbabu Praggnanandha kabi kuchli grossmeysterlarga qarshi ishonchli o‘yin ko‘rsatib, hali turnir tarixida kuzatilmagan noyob holat — oldi

g‘alabali partiya bilan rekord natija qayd etdi. Qizig‘i, so‘nggi turda Javohirning o‘zi mazkur rekordni yana bir bor yangilab qo‘yishi mumkin.

Javohir Sindorov o‘tgan yili Prezidentimiz bilan muloqotda jahon shaxmat tojini O‘zbekistonga olib kelishni va‘da bergan edi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun u kecha Kiprda fenomenal o‘yin namoyish etdi. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, hali bu faqat boshlanishi. Zero, davlatimiz rahbarining shaxmatni qo‘llab-quvvatlashi natijasida mamlakatimizda yana yuzlab, minglab javohirlar, oltin avlod yetishib chiqayti. Ular joriy yilning sentyabr oyida Samarqandda bo‘lib o‘tadigan Butunjahon shaxmat olimpiadasida dona suradi. Ishonamizki, shaxmatchilarimiz “o‘zbek farzandi, yangi O‘zbekiston nimaga qodir ekanini dunyoga tarannum qilishda”, zafarli odimlar bilan xalqimizni xushnud etishda bardavom bo‘ladi.

Asliddin ABDURAZZOQOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Niyat

Javohir SINDOROV g‘alabasiga

Yer sharining uchdan bir qismi Turganida bobom qo‘lida. Ne bir shohlar qaltirab jismi, Bosh egdilar uning yo‘lida!	Ikki rangga bo‘linib nechun Gul bargida titraydi hayot?!
Shaxmatda ham shoh edi Temur, Ketgan omad qaytmog‘i ham bor... Jahon tojin boshingga, yurtim, Kiygizadi Javohir Sindor!	...Dilga tushdi chaqqoqlar shahdi, Uyg‘onmog‘da ulug‘lar yodi! Dunyo, yo‘l ber! G‘alaba ahdi Ot surmog‘da Temur avlodi.
Olam, tinch bo‘! Olam, turgin tik! To‘xtamasin zakovat jangi... Daholikka da‘vog‘ar o‘zbek O‘zgartirar dunyoning rangin.	Olam qotdi vaqt ummonida: “Bu o‘g‘lonni to‘xtat qay zot?!” Ajdodlarim uning qonida Zafar o‘tin yoqmoqdalar shod!
Kurashadi oq — qora ochun, O‘ngu so‘lda uchar adovat.	Hayot — shaxmat! Yo‘li oq-qora! Goho titrar hovuchda jonim... Parvardigor, shu yo‘llar oq G‘olib o‘tsin O‘zbekistonim!

Qo‘chqor NORQO‘BIL



UY-JOY QURILISHI VA URBANIZATSIYA SOHASIDAGI USTUVOR VAZIFALAR, TAKLIF VA TASHABBUSLARGA ALOHIDA E'TIBOR QARATILDI

Boshlanishi 1-betda

Ta'kidlanganidek, tadbirkorlik uchun har yili 6,5 ming gektar yer, 600 ming kvadrat metr bino-inshootlar savdoga chiqarilmoqda, kichik va o'rta biznes uchun 140 trillion so'm resurs ajratilmoqda. Lekin yer va kredit kabi asosiy masalalar hal etilgan bo'lsa-da, tadbirkorlar qurilishni boshlash bosqichida haligacha turli to'siqlarga duch kelmoqda, bu jarayonlar oylab-yillab cho'zilmogda.

Yig'ilishda urbanizatsiya masalasi alohida e'tibor qaratildi. Hozirgi kunda yurtimiz aholisi 38 milliondan oshib, urbanizatsiya darajasi 51 foizga yetgan, qariyb 20 million nafar aholi shaharlarda yashamoqda. Davlatimiz rahbari urbanizatsiya darajasining har 1 foizga o'sishi iqtisodiyotga kamida 1 foiz qo'shimcha o'sish olib kelishini, investitsiya oqimi, biznes va startaplar faolligi, mehnat umumdorligi shunga mutanosib ravishda ortishini ta'kidladi. Shu bois, respublikada urbanizatsiyani barqaror rivojlantirish bo'yicha yagona yondashuv bo'lishi shartligi ko'rsatib o'tildi.

Qayd etilganidek, bosh rejalarini ishlab chiqish uchun byudjetdan yiliga 200-250 milliard so'm ajratilmoqda. Mazkur mablag'lari, avvalo, bosh reja suv ta'minoti eskirgan hududlarga yo'naltirilishi lozim. Ayni paytda kichik shahar va shaharchalarda ham yirik loyihalarni amalga oshirish istagida bo'lgan tadbirkorlar ko'p, ammo shaharsozlik hujjatlari yo'qligi tufayli ularning ishlari to'xtab qolmoqda.

Viloyat hokimlari va Urbanizatsiya qo'mitasiga joriy yilning o'zida byudjet mablag'lari hisobidan 6 ta shahar va 44 ta shaharcha bo'yicha bosh rejalarini, 104 ta qishloq bo'yicha master-rejalarni yakunlash, bundan tashqari, tashabbuskor tadbirkorlar bilan birga yana 50 ta aholi punkti uchun shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqishni boshlash topshirildi.

Yig'ilishda bosh reja yo'qligi vaji bilan 2025-yilda yerni xususiyashtirish bo'yicha 112 ming arizaning 14 foizi rad etilgani, bu esa 4 ming gektar yerni aktivga aylantirish imkoniyati va byudjet uchun qo'shimcha 550 milliard so'm tushumini boy berishga sabab bo'lgani ko'rsatib o'tildi. Shu munosabat bilan uch oy ichida yerlarni xususiyashtirishga oid arizalarga inson omilisiz, 5-10 daqiqa ichida onlayn javob beradigan tizimga o'tish vazifasi qo'yildi.

Qolaversa, bosh rejalarini tasdiqlash bilan cheklanib qolish mumkin emasligi ta'kidlandi. Ularda belgilangan suv, kanalizatsiya, issiqlik, gaz, elektr tarmoqlari hamda yo'llarning qachon, qaysi navbatda va qanday manbalari hisobidan qurilishi aniq ko'rsatilmagani tanqid qilindi. Har bir tasdiqlangan bosh reja bo'yicha uni amalga oshirishning yilma-yil kompleks dasturlari ishlab chiqilishi, bu aholi, tadbirkorlar va mutasaddilarga yetkazilishi shartligi qayd etildi.

Shu bois, har bir viloyat hokimiga ikki oy muddatda viloyat va tuman markazlarining tasdiqlangan bosh rejalarini ro'yobga chiqarish bo'yicha kompleks dasturlarni yaratish topshirildi. Ulardagi tadbirlarning qaysi qismi respublika va mahalliy byudjetdan, qaysi qismi xalqaro moliya tashkilotlari hisobidan moliyalashtirilishi aniq belgilab berilishi shartligi ko'rsatildi.

Yer va obyektlarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish bo'yicha ham jiddiy kamchiliklar qayd etildi. So'nggi to'rt yilda auktsionda sotilgan 11,5 ming gektar yerning 3 ming gektarida qurilish boshlanmagan. Shuningdek, auktsionga chiqarilgan 582 gektar yer uchastkasi va 122 ta davlat obyektiga bir yildan beri sotilmay turgani ko'rsatib o'tildi.

Bunda xususiyashtirish dasturini shakllantirishda ham, obyektlarni sotishda ham hokimlarning o'rni sezilmayotgani, tadbirkorlarning fikri oldindan o'rganilmayotgani tanqid qilindi. Aslida, har bir obyektini sotishda hududga investitsiya jalb qilish va mahalla uchun yangi ish o'rni yaratish birinchi o'rinda turishi lozimligi ta'kidlandi.

Shu bois, endi xususiyashtirish dasturiga obyektlarni kiritish, ularni sotish va investitsiya samaradorligini ta'minlashda hokimlar Davlat aktivlari agentligi bilan teng mas'ul bo'lishi belgilandi. Xususiyashtirish doirasida bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotilgan obyektlar uchun qoldiq summaga har yili 14 foiz ustama hisoblash amaliyoti ham bekor qilinadi.

Yig'ilishda qurilish sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish masalasi ham muhokama markazida bo'ldi. O'tgan yili qurilish bilan bog'liq 2 million 600 mingdan ziyod arizaning uchdan biri rad etilgani, bu holat ortida ko'p hollarda korruptsiya va ortiqcha byurokratik g'ovlar turgani qayd etildi. Davlatimiz rahbari bunday muammolarga barham berishning

eng samarali yo'li raqamlashtirish va sun'iy intellektni keng joriy etish ekanini ta'kidladi.

Hozirgi tizimda aholi va tadbirkorlar avval loyihalashtirishga ruxsat olish, keyin arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish uchun alohida-alohida ariza berib, oylab vaqt yo'qotmoqda. Toshkent shahrida ushbu ikki xizmatni bir bosqichda ko'rib chiqish tajribasi joriy etilgani va natijada hujjatlarni kelishish muddati 3-4 karraga qisqargani ma'lum qilindi. Mazkur tajribani 1-iyuldan boshlab barcha hududlarda joriy qilish topshirildi.

Kommunal tarmoqlarga ulanish bo'yicha texnik shart olishda ham aholi har bir idoraga alohida murojaat qilishiga to'g'ri kelmoqda. Endi 1-iyuldan bitta ariza va bitta to'lov orqali elektr, gaz, suv va kanalizatsiya tarmoqlari borasida texnik shart olish imkoni yaratiladi.

Sansalorlikning yana bir sababi sifatida joylarda shaharsozlik kengashiga a'zo 26 ta idora o'rtasida o'zaro muloqot va hamkorlik yo'qligi ko'rsatildi. Shu munosabat bilan shaharsozlik kengashiga Toshkent shahri va viloyat hokimlarining o'zi boshchilik qilishi, tadbirkor masalasiya yakuniy yechim beradigan tizim joriy etilishi belgilandi.

Mutasaddilarga uch oy ichida qurilishga ruxsat olishdan tortib, obyektini foydalanishga topshirishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni chuqur tahlil qilib, talablar, muddatlar va to'lovlarni kamida ikki barobarga qisqartirish bo'yicha qaror loyihasi kiritish topshirildi.

Qurilish sifati va nazorat masalalari ham tanqidiy muhokama qilindi. O'tgan yili qurilish obyektlarida loyihachi va buyurtmachi nazoratchilari tomonidan 42 mingta kamchilik, Qurilish inspeksiya-si tomonidan esa yana 250 mingdan ortiq qoidabuzarlik aniqlangan. Bunga loyihachi va buyurtmachilarda mualliflik hamda texnik nazorat bo'yicha manfaatdorlik pastligi sabab bo'layotgani qayd etildi.

Shu bois, joriy yil 1-iyundan boshlab davlat buyurtmachilari faoliyati to'liq KPI asosida baholanishi, xodimlar oyilgi 3 karraga oshirilishi belgilandi. Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun obyekt qiymatining 5 foizigacha mablag' ajratiladi, mualliflik nazorati uchun esa alohida shartnoma asosida to'lov qilinadi. Endi texnik yoki mualliflik nazoratchisi mas'ul bo'lgan obyektga qo'pol qoidabuzarlik aniqlansa, pudratchi bilan birga nazoratchilarga ham qat'iy chora ko'riladi, loyihachining "Shaffof qurilish"dagi reytingi pasaytiriladi.

Yig'ilishda xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokida amalga oshirilayotgan infratuzilma loyihalari bo'yicha ham alohida to'xtalib o'tildi. Hozirgi kunda mazkur yo'nalishda 20 milliard dollardan ortiq loyihalar amalga oshirilmogda.

Mutasaddilar va buyurtmachi vazirlik-idoralar xalqaro moliya tashkilotlari bilan muzokaralarda mahalliy quruvchilar imkoniyatlarini yetarlicha himoya qilmayotgani, shartnoma shartlarini belgilashda ularning manfaatini ko'zlamayotgani, xalqaro tenderlarda ishtirok etish shartlarini o'rgatish bo'yicha tizimli ish olib bormayotgani tanqid qilindi.

Aholining uy-joyga bo'lgan talabini ta'minlash masalasi doimiy diqqat markazida bo'lishi shartligi ta'kidlandi. So'nggi yillarda 56 ta "Yangi O'zbekiston" massivi infratuzilmasi uchun 4 trillion 100 milliard so'm ajratilgan, joriy yilda esa ushbu maqsadlar uchun yana 1 trillion 400 milliard so'm yo'naltirilmoqda.

Soha mutasaddilari va hokimlar bu yil mazkur massivlarda 34 ming xonadonni qurib bitkazishi shartligi qayd etildi. Qurilishi davom etayotgan massivlarni kengaytirish faqat o'sha hududdagi kvartirlarning kamida 85 foizi egalari qurilganidan keyin ruxsat etilishi belgilandi.

Umuman, joriy yil hududlarda 140 ming xonadonli ko'p qavatli uylarni foydalanishga topshirish zarurligi ta'kidlandi. Bunda renovatsiyaga alohida e'tibor qaratish muhimligi bildirildi.

Soha uchun kadrlar tayyorlash va kreativ muhitni rivojlantirish masalalariga ham e'tibor qaratildi. Arxitektori, loyihachi va urbanistika sohasi uchun birinchi kreativ parkni Toshkent shahrida tashkil qilish, keyinchalik bunday parklarni hududlarda ham barpo etish ishlari boshlash topshirildi. Bundan tashqari, yangi o'quv yilidan urbanizatsiya, kadastr va geodeziya sohalari uchun kadrlar tayyorlaydigan, o'zini o'zi moliyalashtiruvchi oliyog'oh faoliyati yo'lga qo'yiladi. Uning tarkibida o'rta bo'g'in mutaxassislari uchun texnikum ham tashkil etiladi.

Yig'ilish yakunida Prezidentimiz soha va hududlar rahbarlarining hisobotlarini tingladi. Qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning taklif va tashabbuslari eshitildi.

ZOMIN TOG'LARINI UNESCONING BUTUNJAHON MEROSI RO'YXATIGA KIRITISH BO'YICHA ONLAYN MULOQOT

O'zbekistonning doimiy vakolatxonasi ko'magida UNESCO Butunjahon merosi markazi hamda O'zbekiston Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi vakillari o'rtasida onlayn muloqot tashkil etildi.

Ushbu onlayn uchrashuv "Zomin tog'lari" tabiiy hududini UNESCO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish bo'yicha nomzodlik hujjatlarini tayyorlash jarayoniga bag'ishlandi.

Muhokamada asosiy e'tibor nomzodlikni tayyorlashning ilmiy, texnik va tashkiliy jihatlarga qaratildi. Tomonlar hujjatlarini xalqaro talablar va UNESCOning belgilangan mezonlariga to'liq muvofiq holda shakllantirish zarurligini ta'kidladi. Shu bilan birga, taqdim etilayotgan materiallarning hududning tabiiy xususiyatlari va ekologik ahamiyatini to'liq va xolis aks ettirishi muhimligi qayd etildi.

Uchrashuvda UNESCO Butunjahon merosi markazi nomzodlar bo'limi rahbari Alessandro Balsamo hamda ushbu bo'lim mutaxassisli Tiago Lopes O'zbekiston tomonidan tayyorlangan dastlabki materiallarga yuqori baho berdi. Ular Zomin tog'lari hududining o'ziga xos tabiiy landshafti, biologik xilma-xilligi, o'simlik va hayvonot dunyosi boyligi hamda tabiiy merosini alohida e'tirof etdi.

UNESCO ekspertlari O'zbekiston tomoniga nomzodlikni tayyorlashning barcha bosqichida uslubiy va ekspertlik ko'magini ko'rsatishga tayyor ekanini bildirdi. Shu munosabat bilan ular Butunjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya hamda uning qo'llanmasi talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berdi.

Muloqot chog'ida nomzodlik hujjatlarini yanada takomillashtirish, xalqaro standartlarga moslashtirish hamda ilmiy asoslarni kuchaytirish bo'yicha qator taklif va tavsiyalar ham muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston va UNESCO o'rtasida Zomin tog'lari nomzodligini tayyorlash borasida hamkorlikni yanada chuqurlashtirish bo'yicha kelishuvga erishildi. Tomonlar ushbu tabiiy hududni UNESCO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritishga qaratilgan keyingi amaliy vazifalarni belgilab oldi.

"Dunyo" AA Parij

Nuqtayi nazar

Mutaxassislar hisob-kitobiga ko'ra, 2030-yilga borib, mamlakatimizda suv tanqisligi kuzatilishi hamda buning oqibatida O'zbekiston dunyodagi suv tanqis bo'lgan 33 davlat qatoriga tushib qolish ehtimoli yo'q emas.

Ochiq aytish kerak, bundan o'n yil avval mamlakatimiz suv xo'jaligi tizimi qator muammolar bilan to'qnash kelgan edi. Xususan, irrigatsiya tarmoqlarida suv va energiya yo'qotishlarning yuqori darajasi, kanallar va nasos stansiyalarining eskirgan infratuzilmasi, zamonaviy texnologiyalar hamda innovatsiyalar yetishmasligi, bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning yetarli moliyalashtirilmasligi kabi muammolarga yechim topish mushkul edi.

2017-yildan boshlab sohada tub burilish yuz berdi. Kompleks davlat siyosati va keng ko'lami islohotlar natijasida nasos stansiyalari va irrigatsiya tizimlari modernizatsiya qilindi. Energiya tejoychi va zamonaviy texnologiyalar joriy etila boshlandi.

Bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, suv sarfi hisobini tartibga solish, yo'qotishlarni kamaytirish, mavjud tarmoqlarning raqamli xaritasi va aktivlarini joriy etish hamda sohada "yashil iqtisodiyot" ko'laminii kengaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishildi.

Xususan, suv iste'moli hamda resurslarni taqsimlashni nazorat qiluvchi avtomatlashtirilgan tizimlar yo'lga qo'yilib, suv va elektr energiyasi yo'qotishlari barcha bosqichlarda sezilarli darajada kamaytirildi. Ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash va suv tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish belgilandi. Eng asosiysi, suv resurslarini tejoychi va infratuzilmani modernizatsiya qilish ham asosiy ustuvor yo'nalishga aylandi. 2020-2024-yillarda ushbu maqsadlar uchun byudjetdan 60 trillion so'm hamda 622 million dollar xorijiy investitsiya yo'naltirildi.

Erishilgan natijalar suv resurslaridan oqilona foydalanish va infratuzilmani yanada takomillashtirishni yangi bosqichga olib chiqadi. Bu boradagi sa'y-harakatlar O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish

TEJAMKORLIK DAN YUQORI HOSILDORLIKKA ERISHISH TAMOYILI fermerlar daromadini oshirish mexanizmiga ham aylandi

va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025-2028-yillarga mo'ljallangan dasturi doirasida izchil davom ettirilmoqda.

Dasturga ko'ra, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish evaziga irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, ham manan, ham jismonan eskirgan uskunalarni almashtirish, suv ta'minoti darajasi past maydonlarni qisqartirish kabi ishlar jadallashdi. Sohani zamonaviy texnologiyalar bilan qamrab olish kengaytirildi, kanallarni betonlashtirish darajasi sezilarli darajada oshmoqda.

Shunga qaramay, yerning namlik yo'qotishi, qurg'oqchilik muammosini bartaraf etish va har bir tomchi suvdan maqsadli foydalanishni ta'minlash irrigatsiya tizimidagi asosiy vazifa bo'lib qolyapti. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida bu masala alohida ahamiyat kasb etadi.

Joriy yilga mo'ljallangan davlat dasturida 504 ming gektar maydonda suv tejoydigan texnologiyalarni joriy qilish, 1,3 ming kilometr yirik magistral kanallar, jumladan, sug'orish tarmoqlari va irrigatsiya obyektlarini betonlashtirish nazarda tutilgan. Shuningdek, tajriba-sinov tariqasida hududlarda kanallarni bosimli quvurga o'tkazish bo'yicha loyihani amalga oshirish, ochiq drenaj va kollektorlarni yopiq tizimga o'tkazish bo'yicha alohida dasturi qabul qilish ko'zda tutilmoqda.

Ekologik muvozanatni ta'minlash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha islohotlar "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish hamda tabiiy resurslarni tejashga qaratilgan ustuvor choralarini qamrab oladi. Ushbu yo'nalish doirasida ilg'or texnologiyalarni joriy etish hisobiga 7 milliard kub metr tabiiy gaz tejallishi, atmosferaga 11 million tonna zararli modda chiqishining oldi olinishi ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda suv tejoychi texnologiyalar joriy qilingan maydonlar 2,6 million gektarga yoki sug'oriladigan yer maydonlarining 60 foiziga yetdi. 2017-yilgacha bu ko'rsatkich 19 ming gektarni tashkil etardi. Zamonaviy texnologiyalar hisobiga har yili 2,5 milliard kub metr suv tejallishiga erishilmoqda. Yaqin yillarda suv tejoychi texnologiyalar ko'lami 60



foizdan 80 foizga oshiriladi. Natijada har yili 3,5 milliard kub metr suvni iqtisod qilish, 300 ming gektar yerning suv ta'minotini yaxshilash va takroriy ekinlarni sug'orish imkoniyati yaratiladi. Suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish orqali tejalgan suv resurslari suv ta'minoti og'ir hududda joylashgan fermerlarga kafolatlilik yetkazib berilishiga erishiladi.

Buning uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda suv tejoychi texnologiyalarni joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari qo'llanilmoqda. Xususan, suv resurslari uchun soliq stavkasi va subsidiyalarning miqdori yer maydonining suv bilan ta'minlanganlik holatidan kelib chiqib belgilanadi. Masalan, suv bilan barqaror ta'minlanmagan hududdagi sug'oriladigan yer maydonlarida suv tejoychi texnologiyalar joriy qilinganda ajratiladigan subsidiyalarning miqdori 1,25 oshiruvchi koeffitsiyent qo'llangan holda hisoblanadi.

Bugun suvning katta qismi ekin maydonlarini sug'orishga sarflanmoqda. Bunday vaziyatda

kam suv sarflab, yuqori samaraga erishish katta ilimga aylandi. Shunday ilmi puxta egallagan fermer va dehqonlar hosildorlikda yuqori natija, iqtisodiy samaradorlikka erishyapti.

Paxta dalalarida tomchilatib sug'orish orqali suv bevosita o'simlik ildiziga yetkazilyapti. Bu nafaqat undan samarali foydalanish, balki ekinlarga beriladigan o'g'itlarni ham tejash va hosildorlikni oshirish imkonini beryapti.

— 107 gektarga tomchilatib sug'orish texnologiyasini o'rganmagan, — deydi sirdaryolik fermer Abdulla Begmatov. — Natijada xarajatlarini qariyb 65 foiz kamaydii. Suv hajmi esa 3 foiz qisqardi. Qolaversa, mineral o'g'itlarni o'simlik to'liq o'zlashtirmogda. Misol uchun aytadigan bo'lsak, o'tgan yili 87 gektarda paxta yetishtirdik. Hosildorlik 80 sentnerni tashkil etdi. Bir yilda 2 milliard so'mdan ortiq daromad qildik.

Suv tejoychi texnologiyalarni joriy etgan fermer xo'jaliklariga besh yilga ikki yillik imtiyozli davr bilan 14 foizli kreditlar ajratilmoqda. Shu bilan birga, har bir gektar

yer maydoni uchun 8 million so'mdan 14 million so'mgacha subsidiya berilmoqda. Bundan tashqari, suv solig'ining 50 foizi, besh yilgacha yer solig'idan ozod etilgan. Bu fermerlar uchun juda katta imoniyat.

Joriy yil 3-fevral kuni davlatimiz rahbariga suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash hamda suv tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish yuzasidan o'tkazilgan taqdimotda bu boradagi ishlar qamrovini yanada kengaytirish bo'yicha yangi vazifalar belgilangan edi. Xususan, 2028-yilga qadar sug'oriladigan yer maydonlarining sakson foiziga suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish rejallashtirilgan.

Farmer xo'jaliklariga bu yo'nalishda yana qator imtiyozlar joriy etilmogda. Jumladan, suv tejoychi texnologiyalarni xarid qilish va qurish maqsadida tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar bo'yicha foizlarni qisman qoplab berish yo'lga qo'yiladi. G'o'za maydonlarida tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish uchun kredit mablag'lari har yili noyabr oyidan boshlab ajratiladi. Suv tejoychi texnologiyalarni qurib bergan pudrat tashkilotlari har bir loyihaga kamida 2-yillik kafolat muddati berishi hamda 5-yil davomida servis xizmatlari ko'rsatishi majburiy etib belgilanmogda.

Eng asosiysi, sohaga ilm-fan bilan yondashgan holda tomchilatib sug'orish tizimini ommalashtirish bugun davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanyapti.

— Bundan sakkiz yil oldin gektaridan 40 sentnerdan paxta hosili olgan fermerlarni rag'batlantirish mexanizmi yo'lga qo'yilgan edi, — deydi suv xo'jaligi vaziri o'rinbosari Rustam Qarshiyev. — O'sha vaqtda bunday hosil oladigan fermerlarni barmoq bilan sanasa bo'lardi. Ayni paytda fermerlarimiz 40 sentner hosil olishdan uyaladi. Chunki tomchilatib sug'orish, zamonaviy texnologiyalar kirib kelishi, davlat tomonidan yaratib berilayotgan sharoit va imtiyozlar natijasida paxtadan 55-80 sentnergacha hosil olinmogda.

Shuningdek, suv tejoychi texnologiyalarni kredit olmasdan, o'z mablag'lari hisobidan ishga tushiradigan tashabbuskorlarga subsidiya

ajratishning yangi tizimi joriy etiladi. Bunda tegishli loyiha-smeta hujjatlari va loyihani amalga oshirish bo'yicha ta'minotchi korxonaga bilan tuzilgan shartnoma asosida subsidiya mablag'ining 50 foizi Agrar sohada to'lovlar agentligi tomonidan oldindan ajratiladi.

Endilikda boshqoli don ekinlarini yetishtirishda tomchilatib va diskret sug'orish texnologiyasi joriy qilingan maydonlar uchun ham subsidiya beriladi.

Suv olish joylarida suvni boshqarish va hisobini yuritishni takomillashtirish maqsadida sholi yetishtiriladigan hamda baliqchilik xo'jaliklari tashkil qilingan yer maydonlarida "aqli" suv o'lchash va hisoblash vositalari o'rnatiladi. Ular "Suv hisobi" axborot tizimiga integratsiya qilinadi. Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiya bo'limlarida suvdan suv tejoychi texnologiyalar hamda suvdan foydalanishni monitoring qilish bo'limlari tashkil etiladi.

Tadbirkorlik subyektlarida inspeksiya tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlarni yonkamaralardan foydalanilgan holda amalga oshirish tartibi joriy qilinadi. Inspeksiya qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida suvdan foydalanish va suv insofini monitoring qilish uchun dronlar qo'llashga ruxsat beriladi.

Suv tejoychi texnologiyalar qo'llangan va subsidiya ajratilgan yer maydonlarida bunday texnologiyalar yoki ularning asosiy qismlarini ishlatmasdan o'z amaliy usulda sug'orish suvdan o'zbo'shimchalik bilan foydalanish deb baholanadi. Taqdimotda fermerlarning suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish sohasidagi manfaatlari himoyasini kuchaytirish maqsadida "Suvxo'jaliknazorat" inspeksiya va uning hududiy boshqarmalari tomonidan suv tejoychi texnologiyalarni o'rnatish bilan bog'liq masalalar yuzasidan sudlarga da'vo arizalarini kiritishda davlat bojidan ozod qilish taklif etildi.

Sohada kadrlar salohiyatini oshirish — dolzarb masala. Ayni maqsadda "Suvchilar maktabi" loyihasi doirasida joriy yilda 10 mingta fermer xo'jaligi xodimining malakasi oshiriladi, 358 nafar suv xo'jaligi xodimi malaka oshirish uchun xorijga yuboriladi.

Tejamkorlikdan yuqori hosildorlikka erishish bugun barcha yer egalaringan tamoyiliga, daromadini oshirish mexanizmiga aylandi. Bunday tajriba bitta xo'jalik yoki tumanda emas, balki butun mamlakat bo'ylab joriy etilyapti. Umuman, mazkur choralar ekologik xavflarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va aholi uchun barqaror hamda sog'lom yashash muhitini shakllantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Lutfulla SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Temur tuzuklaridagi boshqaruv tamoyillari ham aynan shu intellektual muhit bilan uyg'un. U ishni to'qqiz ulush kengash, bir ulush kuch bilan hal qilish kerak degan fikrni ilgari surgan. Bu davlat boshqaruvining aniq modeli edi. U qaror qabul qilishda maslahatni ustun qo'ygan, kuchni esa so'nggi chora sifatida ko'rgan.

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz.uz_news



Yangi O'zbekiston ruhi

Yangi O'zbekistonni yuksaltirish uchun kerakli bilimlarni qayerdan olish mumkin desangiz, bularning barchasi — ajdodlarimiz qoldirgan merosda, ilmda.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Fan, ta'lim, madaniyat, sport va
yoshlar masalalari
qo'mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Haqiqat shuki, Temur davlati faqat harbiy g'alabalar hisobidan barpo etilmagan. U davlatni saqlash uchun ichki me'yor, kadrlar siyosati, xulq-atvor qoidasi va amaliy javobgarlikni joriy etgan. Bu yerdagi eng muhim burilish shundaki, davlat shaxsiy xohishlar maydonidan chiqarilib, umumiy qoidalar tizimiga aylantirilgan. Ya'ni hokimiyat bir odamning kayfiyatiga emas, qat'iy tuzukka bog'langan. Shuning o'ziyoq Temur siyosatini o'rta asrlarning oddiy fathchilik tafakkuridan yuqoriga ko'taradi. Harbiy yurishlar ortida ma'naviy va huquqiy tafakkur turgani uchun ham temuriylar davri keyinchalik ilm-fan va madaniyat yuksalishining poydevoriga aylandi.

“Temur tuzuklari”ning eng kuchli jihatlardan biri ilgama munosabatida. Bu asarda olim, fozil, muhaddis, tarixchi, tabib, munajjim va muhandislar davlatning, balki ichki tayanchi sifatida namoyon bo'ladi. Temur ilm ahlini to'plagan, ular bilan maslahatlashgan, ularni hurmat qilgan, davlat ishiga aralashtirgan. Bu yerdagi farq juda muhim: “olimlarni hurmat qilgan” degan iboraning o'zi yetarli emas. Chunki hurmat xulq, integratsiya esa davlat siyosati masalasi. Temur ilmi ortiqcha ziynat emas, boshqaruvning zarur qismi deb bilgan. Mana shu sababdan bilimni inson uning saltanatida fikr ishlab chiqaruvchi kuchga aylangan.

Shu nuqtada haqiqiy tarixiy to'xtamga kelish mumkin: Temur ilm-fanni davlat xavfsizligining bir qismiga aylantirgan. Chunki bilimsiz qaror — xato qaror, xato qaror — zaif davlat, zaif davlat — tez parchalanadigan saltanat. Temur bu zanjirni yaxshi anglagan. Shu bois, u faqat qo'shinni emas, aqlni ham uyushтира olgan. Ilm uning nazariyasida maqsad emas, vosita edi. Vosita esa davlatni mustahkamlash, barqaror qilish va kelajakka yo'l ochish uchun xizmat qilardi. Bu jihat bilan Temurning davlatchilik madaniyati zamonaviy “bilimga asoslangan boshqaruv” tushunchasiga g'oyat yaqin turadi.

Samarqand ana shu siyosiy-ilmii qarashning eng yorqin mevasidir. Mazkur shahar temuriylar davrida faqat poytaxt bo'lib qolmadi. U aql va madaniyat markaziga, ilm va me'morlikning qo'shilgan nuqtasiga aylandi. Bu yerda temuriylar Renessansi tasodifiy ravishda paydo bo'lgan madaniy ko'tarilish emasdi, davlat siyosati, tarbiya, sarmoya va intellektual muhitning tabiiy natijasi edi. Avval davlat tartibga keladi, keyin ilm nafas oladi, avval markaz mustahkamlanadi, keyin rasadxona barpo etiladi, avval qonun ustuvor bo'ladi, keyin madaniyat gullaydi.

Shu tariqa “Ikkinchi Renessans” tushunchasi alohida mazmun kasb etadi. Bu atama bo'sh shior bo'lmasligi kerak. U temuriylar davrida davlat, ilm va madaniyatning bir-birini quvvatlagan tizimini ifodalaydi. Davlat kuchli bo'lgani uchun ilgama sharoit tug'ildi. Ilm kuchaygani uchun madaniyat yuksaldi. Madaniyat yuksalgani uchun jamiyat o'zini anglash darajasiga ko'tarildi. Shunday qilib, Temur davridagi tartib keyinchalik Ulug'bek davridagi ilm-fan taraqqiyotiga, so'ng esa butun bir ma'naviy uyg'unlashga asos bo'ldi. Shu ma'noda, Temurni Ikkinchi Renessansning asoschisi deiyish chiroyli ibora bo'lmay, bil'aks, tarixiy mantiqdir.

Temur davlat boshqaruvida adolati ham markazga qo'ygan. Bu yerda adolat davlatning qonunini yashash shartidir. “Adolat davlat asosi”

TEMUR TUZUKLARI: DAVLATNI QONUN, JAMIYATNI ILM, TARTIBNI ADOLAT USHLAB TURADI

g'oyasi bir necha qirrada ochiladi: zolimga jazo, mazlumga himoya, hokimga nazorat, qonunga suyangan boshqaruv. Bu qarash Temurni faqat kuchli emas, balki hisobdor hokim sifatida ko'rsatadi. Agar hukmdor o'zini qonundan yuqori qo'ysa, davlat qo'rquvga quriladi, agar qonun hukmdordan yuqori tursa, davlat ishonchga quriladi. Temur tuzuklarining mohiyati mana shu burilishda. U kuchni hurmat qilgan, lekin kuchni chegarasiz qoldirmagan. Qonunni ustun qo'ygani uchun ham uning davlatida tartib va intizom davlatchilikning ichki qonuniga aylangan.

Bir haqiqat borki, har qanday davlatning kelajagi uning maktab va madrasaga, ustoz va shogirdga, savod va tafakkurga qanday qarashi bilan belgilanadi. Temuriylar davrida bu masala

qimmatli. Bu ta'sirning markazida esa harbiy qudrat emas, balki ilm, ta'lim va madaniyatga tayangan davlat siyosati turadi. Temuriylar davridagi yuksalishning ildizi tartibga solingan davlat, bilimga tayangan boshqaruv va qadriyatlariga asoslangan jamiyatdir.

Bu yerda bir muhim savol bor: nega ko'p-lab kuchli saltanatlar tarixda izziz yo'qolgan, Temuriylar esa madaniy va ilmiy meros qoldirgan? Javob yana o'sha bir nuqtaga borib taqaladi: ta'lim va ilgama munosabat. Temuriylar davrida bilim shaxsiy fazilatdan ko'ra, ijtimoiy zaruratga aylangan. Davlat o'zini saqlab qolish uchun, avvalo, fikrlaydigan insonlarni tayyorlashi kerakligini anglagan. Shuning uchun ham maktab va madrasalarni ko'paytirish, mudarrislariga maosh

Mazkur jarayon keyinchalik Mirzo Ulug'bek davrida yanada chuqurlashdi. Ulug'bek shaxsi Temur yaratgan muhitning tabiiy davomi edi. Uning rasadxonasi, madrasalari va ilmiy faoliyati temuriylar davrida ilm-fan qanday darajaga chiqqanini yaqqol ko'rsatadi. Bu yerda muhim jihat shundaki, Ulug'bekning ilmiy yutuqlari shaxsiy iste'dod natijasi bo'lish bilan birga davlat tomonidan yaratilgan sharoitning ham mahsulidir. Agar muhit bo'lmasa, iste'dod ham to'liq ochilmaydi. Temuriylar davri esa aynan shunday muhitni yaratgan.

Temuriylar davrida ilm-fanning yuksalishi madaniyat rivoji bilan uzviy bog'liq. Me'morlik, adabiyot, tarixnavislik va san'at sohasidagi yutuqlar jamiyatning ma'naviy saviyasini belgilab bergan. Bu yerda madaniyat jamiyatni birlashtiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lgan. Davlat siyosatining madaniyat bilan uyg'unligi esa uning barqarorligini ta'minlagan.

Shu o'rinda yana bir muhim jihatga e'tibor qaratish kerak: temuriylar davrida ilm va madaniyatning rivoji tashqi dunyo bilan aloqalar kengayishiga ham xizmat qilgan. Savdo yo'llari tiklanishi, diplomatik munosabatlar yo'lga qo'yilishi, turli xalqlar o'rtasidagi aloqalar kuchayishi madaniy va ilmiy almashinuvni tezlashtirgan. Bu esa jamiyat ochiq tizimga aylanganini ko'rsatadi. Ochiqlik bo'lgan joyda taraqqiyot tezlashadi.

Agar bu jarayonlarni birlashtirib qarasa, temuriylar davridagi Renessansning asl mexanizmi ochiladi. Bu mexanizm juda sodda, lekin juda samarali: davlat tartib o'rnatadi, tartib barqarorlikni ta'minlaydi, barqarorlik ilgama imkoniyat yaratadi, ilm madaniyatni yuksaltiradi, madaniyat esa jamiyatni taraqqiyotga olib chiqadi. Bu zanjirning har bir bo'g'ini muhim. Agar shu bo'g'inlardan biri uzilsa, butun tizim izdan chiqadi.

Temuriylar davri bizga bitta aniq saboq beradi: taraqqiyot tasodifiy bo'lmay, u ongli ravishda yaratilgan muhit natijasidir. Ilmni qo'llab-quvvatlamay turib, madaniyatni rivojlantirib bo'lmaydi, madaniyatsiz jamiyat esa barqaror bo'lmaydi, barqarorsiz davlat uzoq yashay olmaydi. Temuriylar bu bog'liqlikni anglagan va uni amalda qo'llagan.

Tarix bizga tayyor javob bermaydi, lekin aniq yo'nalish ko'rsatadi. Temuriylar davri ana



shu yo'nalishlardan biri. U bizga davlatni bilim bilan, jamiyatni tarbiya bilan, taraqqiyotni tasodif bilan emas, tizim bilan ta'minlash mumkinligini o'rgatadi.

Tarixni o'qishning ikki yo'li bor: yo uni eslab qo'yish, yo undan xulosa chiqarish. Agar “Temur tuzuklari”ga faqat o'tmish yodgorligi sifatida qarasa, u kutubxonaga javonida qoladi. Agar davlat tafakkuri sifatida o'qisak, u bugungi kunga xizmat qiladi. Shu ma'noda, temuriylar davri amaliy saboqlar manbaidir.

Amir Temur yaratgan tizimning eng katta yutuqi shundaki, u qisqa muddatli g'alabalardan ko'ra, uzoq muddatli barqarorlikka xizmat qildi. Bu barqarorlik asosida esa uchta ustun turdi: ilm, adolat va tartib. Ilm qarorning sifati, adolat hokimiyatning chegarasi, tartib davlatning ustuni. Shu uchala omil bir-birini qo'llab-quvvatlagani uchun ham temuriylar davrida sivilizatsion yuksalish yuz berdi.

Bu yerda yana bir muhim jihat bor. Temuriylar davrida davlat va jamiyat o'rtasida uzilish bo'lmagan. Davlat ilmi qo'llab-quvvatlagan, ilm esa jamiyatni rivojlantirgan. Jamiyat rivojlangani sayin davlatning poydevori mustahkamlangan. Shu o'zaro bog'liqlik buzilmagani uchun ham tizim ishlagan. Agar davlat jamiyatdan uzilsa, u faqat kuchga tayanadi, agar jamiyat davlatdan uzilsa, u tartibni yo'qotadi. Temuriylar davrida esa bu muvozanat saqlangan.

Ikkinchi Renessansning haqiqiy mohiyati ham aynan shu yerda. U alohida shaxslar yutuqi emas, balki tizim natijasi. Mirzo Ulug'bek kabi allomalar paydo bo'lishi uchun, avvalo, muhit kerak edi. Bu muhitni esa Temur yaratgan. Agar davlat ilgama sharoit yaratmasa, iste'dodlar yakka holda qoladi, agar sharoit bo'lsa, iste'dodlar maktabga aylanadi. Temuriylar davrida aynan shu holat kuzatiladi — yakka iste'dodlar tizimli ilgama aylandi.

Demak, temuriylar merosi bugungi kun uchun ham dolzarb. Chunki zamon o'zgarigani bilan taraqqiyotning asosiy qonunlari o'zgarimaydi. Bugun ham davlatning kuchi uning tabiiy resurslari bo'libgina qolmay, balki intellektual salohiyatida. Bugun ham adolat bo'lmagan joyda barqarorlik bo'lmaydi. Bugun ham ta'limga e'tibor bermagan jamiyat kelajakni yo'qotadi. Temuriylar davri ana shu haqiqatlarni bir necha asrlar oldin amalda isbotlab bergan.

Temuriylar davrining yana bir sabog'i davlat masalasi. Agar kadr bilimli, mas'uliyatli va adolati bo'lsa, qonun ishlaydi. Aks holda, eng yaxshi qonun ham qog'ozda qoladi. Temuriylar davrida ta'limga markaziy o'rinni tutishi aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan. Bugun ham bu masala o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Ilm-fan yuksalishi tasodif emasdi. Bu jarayonning ortida bir insonning shaxsiy qiziqishidan ko'ra, balki aniq shakllangan davlat

siyosati turgan. Amir Temur ilm ahlini davlat boshqaruvining ajralmas qismiga aylantirgan siyosatchi sifatida ajralib turadi.

Uning saroyida faqat amaldorlar emas, balki fikr egalari — olimlar, mutafakkirlar, tarixchilar, faylasuflar ham yig'ilgan edi. Sa'duddin Taftazoniy, Sayyid Sharif Jurjoni kabi allomalarning Samarqandda faoliyat yuritishi buning yaqqol dalilidir. Bu muhitda ilm himoya qilinmagan — u ishlatilgan. Temur olimlar bilan muntazam muloqot qilgan, ular

bilan bahslashgan, eng muhimi, davlatga oid qarorlarda ularning fikriga tayangan.

Bu yerda hal qiluvchi jihat shundaki, Temur uchun bilim nazariy qadriyat emasdi. U uni amaliy kuch sifatida ko'rtdi. Shu bois, tarix uning eng sevgan fanlaridan biriga aylandi. Sohibqiron o'tmishni o'rganish orqali kelajakni boshqarish mumkinligini anglagan. Hukmdor sifatida o'z qarorlarini tasodifdan ko'ra, tarixiy tajribaga tayangan holda qabul qilgan. Shuning uchun saroy tarixchilariga voqealarni bo'rttirmasdan, boricha yozish talabini qo'ygani o'sha davr uchun noyob intellektual yondashuv edi.

Temur davrida ilm-fanning turli sohalari bir vaqtning o'zida rivojlanishi ham aynan shu yondashuv bilan bog'liq. Me'morchilik va muhandislikda yuksak inshootlar barpo etildi, aniq fanlarga ehtiyoj ortdi, hisob-kitob, geometriya va astronomiya amaliyotga kirib keldi. Bu jarayon keyinchalik Mirzo Ulug'bek davrida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Ulug'bek rasadxonasida qilingan tadqiqotlar, “Ziji Ko'ragoni” kabi asarlar yaratilishi — ularning barchasi Temur tomonidan qo'yilgan ilmiy poydevorning tabiiy davomi edi.

Bu yerda yana bir muhim jihat ko'rinadi: Temur ilmi faqat markazda jamlamagan, balki uni tizimga aylantirgan. Samarqand va boshqa shaharlarda madrasalar barpo etilgan, ularda diniy bilan bir qatorda dunyoviy fanlar — matematika, mantiq, astronomiya, tarix, adabiyot o'qitilgan. Katta kutubxonalar tashkil etilib, turli o'lkalardan qo'lyozmalar yig'ilgan. Bular ta'lim va bilimga munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini anglatadi.

Temurning ta'limga qarashida ham strategik yondashuv yaqqol namoyon bo'ladi. U ta'limga davlatni saqlash vositasi sifatida ko'rgan. Shuning uchun kelajak avlodni tarbiyalash, bilimli kadrlar yetishtirish siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu yerda ta'lim elita tayyorlash mexanizmiga aylanganini ko'ramiz.

Temur tuzuklaridagi boshqaruv tamoyillari ham aynan shu intellektual muhit bilan uyg'un. U ishni to'qqiz ulush kengash, bir ulush kuch bilan hal qilish kerak degan fikrni ilgari surgan. Bu davlat boshqaruvining aniq modeli edi. U qaror qabul qilishda maslahatni ustun qo'ygan, kuchni esa so'nggi chora sifatida ko'rgan.

Shu bilan birga, u kadrlar masalasida mutlaqo pragmatik yo'l tutgan. Mansabga tayinlashda nasl yoki kelib chiqishi emas, aql, tajriba va sadoqat hal qiluvchi mezon bo'lgan. Temur tomonidan amaldorlarga qo'yilgan talablar — aqllilik, halollik, shijoat, sabr, adolat va mas'uliyat kabi sifatlar davlat boshqaruvining axloqiy kodeksi sifatida xizmat qilgan.

Bu barcha faktlar bir nuqtaga olib keladi: Temur uchun ilm-fan, ta'lim va adolat alohida sohalar emasdi. Ular davlatning uchta ustuni sifatida qaralgan. Ilm — qaror sifati, ta'lim — kadr manbai, adolat esa boshqaruvning chegarasi bo'lgan. Aynan shu uyg'unlik temuriylar davridagi yuksalishning asl sababidir.

Shu yergacha aytilgan barcha fikrlarni bir joyga yig'sak, bitta katta xulosa kelib chiqadi: temuriylar davri — kuchli davlat, bilimli jamiyat va adolati boshqaruv uyg'unligining namunasi. Bu uyg'unlik buzilganda tizim izdan chiqadi, saqlanadiga esa taraqqiyot davom etadi. Shuning uchun ham “Temur tuzuklari”ni faqat o'qish emas, tushunish kerak.

Bugun yangi O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini belgilayotgan bir paytda biz tarixga orqaga qarash uchun emas, oldinga yurish uchun murojaat qilamiz. Chunki tarix o'tganlar haqidagi xotira emas, bugungi qarorlar uchun o'lehovdir.

Amir Temur davri shu ma'noda biz uchun aniq mezonlarni beradi. Bu mezonlar oddiy ko'rinadi, ammo ularning har biri davlat taqdirini hal qiladi. Davlat ilgama tayanadi, aks holda, qarorlar ko'r-ko'rona qabul qilinadi. Jamiyat ta'lim bilan yuksaladi, yo'qsa, taraqqiyot tasodifga aylanadi. Hokimiyat adolat bilan mustahkamlanadi, kuch esa ishonchini almashtira olmaydi. Bu uchlik tanlov emas, zarurat. Chunki taraqqiyot tizimdan paydo bo'ladi.

Agar ilm chetga surilsa, davlat zaiflashadi. Agar ta'lim qadrsizlansa, jamiyat orqaga qaytadi. Agar adolat yo'qolsa, hokimiyat o'z poydevorini o'z yemira boshlaydi.

Mana shu nuqtada “Temur tuzuklari” o'zining haqiqiy ahamiyatini ochadi. U o'tmish haqidagi hikoya emas. U davlat qanday barpo etilishi, qanday saqlanishi va qanday yuksalishi haqidagi amaliyotdir. Amir Temurning buyukligi ham aynan shu yerda: u davlatni faqat qurmagani, balki uning qanday ishlashi kerakligini belgilab bergan.

Shuning uchun Temur merosi amalda ishlatilishi kerak bo'lgan tafakkur sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu ma'noda, “Temur tuzuklari” o'tmish kitobi emas, balki kelajakni qurish uchun yozilgan dasturdir.



DENDROLOGIYA BOG'LARI

havo tozaligi uchun qanchalik ahamiyatli?

Sanoatlashuv va urbanizatsiya jadallashgan sari inson yashaydigan muhit tabiiy muvozanatdan uzoqlashmoqda. Havo sifati yomonlashayotgan, harorat oshib borayotgan bir vaqtda "yashil" infratuzilma aholi salomatligi, shahar muhiti barqarorligi va kelajak xavfsizligini ta'minlovchi strategik omilga aylangan.

Yurtimizda bu yo'nalishda muhim ishlar qilinmoqda. Davlatimiz rahbarining "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Milliy dendrologiya bog'ini barpo etishga start berishi bu jarayonning amaliy tus olganini ko'rsatadi. Bu tashabbus ko'kalamzorlashtirishni shunchaki ko'chat ekish darajasidan ilmiy asoslangan, uzoq muddatli ekologik tizim yaratish bosqichiga olib chiqishga qaratilgan.

Dendrologiya bog'lari faqat manzara uchun emas, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy maydondir. Ularda turli mamlakatlardan keltirilgan daraxt va buta turlari mahalliy iqlim sharoitida sinovdan o'tkaziladi. "Ya'ni qaysi daraxt qurg'oqchilikka chidamli, qaysi biri shovqin bardsos beradi, qaysi tur shahar sharoitida — chang, gaz va cheklangan suv muhitida yaxshi o'sadi" kabi muhim savollarga javob aynan shu yerda topiladi.

Natijada esa shaharlar va qishloqlar uchun eng maqbul, yashovchan va barqaror daraxt turlari tanlab olinib, ko'kalamzorlashtirish ishlarida xatolarni kamaytirish, resurslarni tejash va ekologik samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan dendrologiya bog'lari shaharsozlik va ekologiya kesishmasida joylashgan o'ziga xos ilmiy laboratoriya vazifasini bajaradi. Ularda olingan natijalar amaliyotga joriy etilib, ko'chalar, bog'lar, xiyobonlar va turar joy massivlarini ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladi.

Raqamlar ortidagi strategiya

Bugungi kunda mamlakatimizda uchta botanika bog'i mavjudligi "yashil" infratuzilmani rivojlantirish borasida hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lami keng ekani ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan,



"Yashil makon" doirasida 2028-yilgacha 12 ta botanika va 16 ta dendrologiya bog'ini tashkil etish rejasi strategik jihatdan muhim qadamdir. Bu tashabbus nafaqat yashil hududlar maydonini kengaytirish, balki ularni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni ham nazarda tutadi. Oldinlari ko'chat ekish ishlarini ko'p hollarda umumiy yondashuv asosida, muayyan hududning tabiiy xususiyatlarini yetarlicha hisobga olinmagan holda amalga oshirilgani kuzatilgan. Bu esa ayrim daraxt turlarining moslasha olinmasligi, qurib qolishi yoki kutilgan samarani bermasligiga sabab bo'lgan. Yangi yondashuv esa aynan shu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bilan ahamiyatli.

Endi har bir hudud uchun ko'chat tanlash jarayoni ilmiy tahlillar asosida kechadi. Tuproq tarkibi, namlik darajasi, iqlimning o'ziga xos xususiyatlari, shahar muhitidagi ekologik bosim darajasi kabi omillar chuqur o'rganiladi. Shu asosda eng mos, chidamli va uzoq umr ko'radigan daraxt va butalar tanlab olinadi. Oqibatda ekiladigan ko'chatlarning yashovchanligini oshirish, parvarish xarajatlarini kamaytirish, eng muhimi, barqaror yashil hududlarni shakllantirish imkonini yuzaga keladi.

Barpo etiladigan bog' va xiyobonlar faqat tashqi ko'rinishi bilan emas, balki ekologik samaradorligi bilan ham ajralib turadi. Ya'ni ular havoni tozalash, mikroiklimni yaxshilash, chang va shovqinni kamaytirish kabi muhim vazifalarni uzoq muddat davomida barqaror ravishda bajara oladi. Shu ma'noda, mazkur raqamlar ortida oddiy statistika emas, ilmiy asoslangan, uzoqni ko'zlagan va tizimli ekologik strategiya mujassam.

Tabiiy konditsioner

108 gektarli Milliy dendrologiya bog'i ko'plab daraxt va butani o'z ichiga olgan ulkan yashil makonga aylanib, shahar ekotizimining ajralmas qismi bo'lishi kutilmoqda. Bu shunchaki navbatdagi istirohat bog'i emas, poytaxtning ekologik barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladigan murakkab va samarali tabiiy tizimdir.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, bunday ko'lamdagi yashil hududlar shahar muhitiga ko'p qirrali ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Eng avvalo, ular havodagi zararli chang zarrachalari — PM2.5 va PM10 miqdorini sezilarli darajada, ya'ni 20-25 foizgacha kamaytirishga imkon beradi. Bu ekologik ko'rsatkichlarni yaxshilaydi, aholi salomatligiga ham bevosita ijobiy ta'sir qiladi. Ayniqsa, nafas yo'llari kasalliklarining oldini olishda bunday tabiiy filtr vazifasini bajaruvchi hududlarning ahamiyati juda katta.

Dendrologiya bog'i shahar iqlimini yumshatishda ham muhim rol o'ynaydi. Eng avvalo, uzoq oylarda havo haroratini o'rtacha 2-4 daraja pasaytirishi mumkin. Yashil hududlarda namlik darajasi oshishi esa inson organizmi uchun yanada qulay muhit yaratadi, umumiy iqlim sharoitini barqarorlashtiradi.

Shu tariqa Milliy dendrologiya bog'i poytaxt uchun o'ziga xos "tabiiy konditsioner" vazifasini bajarib, shahar muhitini sog'lomlashtirish, aholiga qulay yashash sharoitini yaratish va zamonaviy urbanizatsiya jarayonlarini ekologik muvozanat bilan uyg'unlashtirishda muhim o'rin tutadi.

Ekologiyadan iqtisodiyotgacha bo'lgan ta'sir

Dendrologiya bog'lari faqat ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan cheklanib qolmay,



iqtisodiy rivojlanishga ham sezilarli hissa qo'shadi. Zamonaviy shaharsozlikda yashil hududlarga nafaqat tabiatni muhofaza qilish vositasi, balki hududning investitsion va ijtimoiy jozibadorligini oshiruvchi muhim omil sifatida qaralmoqda. Yashil makonlar ko'paygan sari shahar muhiti yanada qulay, sog'lom va estetik jihatdan jozibali tus oladi. Bu, o'z navbatida, ichki va tashqi sayyohlar oqimini oshirish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish hamda mahalliy iqtisodiyotga qo'shimcha daromad manbalari yaratish imkonini beradi.

Shu bilan birga, dendrologiya bog'lari atrofidagi yangi iqtisodiy faollik shakllanadi. Landshaft dizayni, ko'chat yetishtirish, agrotexnologiyalar, parvarish va xizmat ko'rsatish sohaslarida qo'shimcha ish o'rnlari yaratiladi. Bu jarayon mahalliy aholi bandligini ta'minlashga, ayniqsa, yosh mutaxassislar uchun yangi imkoniyatlar ochishga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday loyihalar doirasida ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirib, botanika, ekologiya va agrar sohalarda yangi ishlanmalar paydo bo'ladi.

Dendrologiya bog'lari ekologik va madaniyatni yuksaltirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ular aholi, ayniqsa, yoshlar uchun tabiatni anglash, uni asrash va mas'uliyatli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantiruvchi ochiq maydon vazifasini bajaradi. Turli o'quv dasturlari, ekskursiyalar va amaliy mashg'ulotlar orqali ekologik bilimlar ommalashadi, bu uzoq muddatli istiqbolida jamiyatning tabiatga munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Sardor TOLLIBOYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Barpo etiladigan bog' va xiyobonlar faqat tashqi ko'rinishi bilan emas, balki ekologik samaradorligi bilan ham ajralib turadi. Ya'ni ular havoni tozalash, mikroiklimni yaxshilash, chang va shovqinni kamaytirish kabi muhim vazifalarni uzoq muddat davomida barqaror ravishda bajara oladi.



Hokim yordamchisi

Oltiariq tumanidagi "Zilol" mahalla fuqarolar yig'inidagi hokim yordamchisi Qilichbek Ahmedov 22-mart — Mahalla tizimi xodimlari kuni munosabati bilan Prezidentimiz farmoniga asosan "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

Qahramonimizni mahallada, ish ustida uchratdik. Suhbat asnosida birgalikda ko'chama-ko'cha, xonadonma-xonadon kezdik. Yo'l-yo'lakay quloqqa "Hokim yordamchisi kelyapti" degan shivir-shivirlar chalindi. Katta-kichik uni taniyapti, ishonaypti, maqsad va rejalarini, bor masalalarini ochiq aytaypti. Hokim yordamchisi bu mas'uliyatli vazifaga tayinlangunicha tijorat bankida turli vazifalarda samarali mehnat qilgan. El ko'rgan, davra taniyadigan yigit emasmi, aholi bilan tez til topishadi.

"Zilol" mahalla fuqarolar yig'ini Oltiariq tumanining janubida, qo'shni Qirg'izistonga tutash hududda joylashgan. Mahalla ilgari tumanidagi "og'ir" hudud toifasida edi. Sanoat tarmoqlari yo'q, tomorqada dehqonchilik qilish uchun oqar suv muammo edi. Aksariyat yoshlar mehnat muhojiri bo'lib ish qidirib ketishga majbur bo'lgan.



Keyingi yillardagi hayotbaxsh islohotlar sabab hududdagi vaziyat ijobiy tomonga o'zgaradi. "Mahalla yettligi" sa'y-harakatlari tufayli yangi tashabbuslar quloq yozdi. Tajribalar ommalashib, quloqlikka barham berildi.

Mahalladagi 670 ta xonadonda istiqomat qilayotgan 3385 kishi to'liq xatlovdan o'tkazildi. Har bir oila maxsus platformaga joylashtirildi. Keyingi uch yilda 250 fuqaroga



ISLOHOTLAR NAFASI HAR BIR XONADONGA KIRIB BORMOQDA

5,7 milliard so'm kredit berilib, 450 ta yangi ish o'rni yaratildi. O'z navbatida, 55 xotin-qiz va yosh kasb-hunarga o'qitildi. "Ayollar haftasi"ni 25 nafar opa-singlimiz "Har bir oila — tabrikor" dasturi orqali o'z biznesini yo'lga qo'ydi. Norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan 300 dan ziyod fuqaro "soya"dan chiqarildi. Ular qonuniy ishlash uchun ko'mak berildi. Uch yilda mahallada 200 ga yaqin tabrikorlik subyekti ochildi. Yuqori daromadli tarmoqlar

kirib borib, mahalla ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylanib boryapti. Ayni jarayonda mahalladagi hokim yordamchisining xizmati beqiyos.

— Tajribamdan kelib chiqib, ijtimoiy daftarlarni ro'yxatidagi oilalarni tabrikorlikka yo'naltirish va tomorqadan umumiy foydalanishga o'rgatishga jiddiy e'tibor qaratganman, — deydi Qilichbek. — Natijada issiqxonalar, uzum uchun so'rtok qurish, chorvachilik, parrandachilik, savdo va xizmat ko'rsatish yo'nalishlari bo'yicha imtiyozli kredit evaziga fuqarolar bandligi ta'minlandi. Bundan to'rt yil oldin mahallada bor-yo'g'i 9 ta xonadonda issiqxonalar bor edi. Hozir ularning soni 320 taga yaqinlashdi. Yiliga ikki-uch marta pomidor va bodring yetishtiriladi. Mahsulotning 80 foizi yetakchi tabrikorlar tomonidan Rossiya, Qozog'iston va Qirg'izistonga eksport qilinmoqda. Bu esa har bir xonadonga yil mobaynida o'rtacha 100-150 million so'm daromad keltiryapti. Kambag'al, ijtimoiy reyestrda kirgan oilalarni daromadli qilish maqsadida ular salohiyatli tabrikorlarga birlashtirilyapti. Kasb-hunarga o'qitilib, ekin yerlari ajratilyapti. Oxirgi uch yilda migratsiyadan qaytgan, ijtimoiy himoya daftarlarga kiritilgan 110 nafar yosh va xotin-qizga 10 gektar ekin maydoni berilib, "Bir kontur — bir mahsulot" tamoyili asosida bodring va pomidor yetishtirish yo'lga qo'yildi. Ekinni suv bilan ta'minlash uchun subsidiya asosida tik quduq qazib berildi. Joriy yilda 102 ta kichik tabrikorlik subyekti faoliyatini yo'lga qo'yishni ustuvor vazifa qilib olganmiz.

Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin. Muhimi, bandlikni ta'minlash orqali aholini kambag'allikdan chiqarish, farovonligini oshirishga qaratilgan islohotlar mahalladagi har

bir oila hayotida bo'yo'rsatmoqda. Mahallada bodring va pomidor yetishtirish yo'nalishida "Zilol" mirshkor dehqonlari kooperatsiya tashkil etildi. Ular tashabbusi bilan aholi va fermerlarga sarxil urug' yetkazib berish, yetishtirilgan mahsulotlarni dalaning o'zida sotib olish tizimi yo'lga qo'yilgan.

— Hokim yordamchisi uyimizga kelib, yo'l-yo'riq ko'rsatib, daromadli loyihalar bilan tanishtirib, puligacha hisob-kitob qilib bermoqda. Bu tashabbuslarimizga qanot bo'lyapti, — deydi Abduqodir Rahmonov. — Islohotlar samarasini o'z oilamiz misolida his qilyapmiz. Ilgari kambag'al oila reyestrda turardik. Bizga issiqxonalar qurish uchun 33 million so'm imtiyozli kredit berildi. Mana, ikki yildirki, ertachi bodring ekib, daromad o'laymiz. Endi kambag'al emasman, hamma narsamiz yetarli.

Darhaqiqat, "mahallabay", "xonadonbay" ishlash tizimi rahbarlarni xalq bilan yaqinlashtirdi. Aholi muammolarini yuzmayuz o'rganish, aniq va manzilli yordam ko'rsatish imkoniyatini berdi. Xizmat ko'rsatish yo'nalishlariga imtiyozli kredit ajratish orqali mahalla hududida 50 o'rinni 2 ta nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yildi. Tikuvchilik sexi ochildi.

— Qilichbek mahallaning og'irini yelkashga olganlaridan, — deydi fuqarolar yig'ini raisi Shuhratjon Parpiyev. — Mavjud muammolarni hal etish, yo'l-yo'riq, huquqiy maslahatlar berishga salohiyati, bilim va tajribasi yetarli. Odamlar unga ishonadi. Shu bois, har bir murojaatga ijobiy yechim topish, ko'maklashish, qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

KICHIK SHAHARNING ULKAN SALOHİYATI

Mamlakatimizdagi tizimli islohotlar, ayniqsa, hududlarni industrial rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va yangi ish o'rnlari yaratish borasidagi ishlar Navoiy viloyatida ham samara bermoqda. Buni hududning har bir tuman va shahri misolida ko'rishimiz mumkin.



Jumladan, G'ozg'on shahrida investitsiya dasturlari doirasida ko'plab loyihalar amalga oshmoqda. Bular nafaqat sanoat quvvatini kengaytirish, balki qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohaslarida ham yangi imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Shu orqali aholi bandligi ta'minlanib, yoshlar va xotin-qizlar tabrikorligi kengaymoqda. Muhimi, shahar infratuzilmasi zamonaviy talablar asosida yangilanishiga zamin yaratmoqda.

G'ozg'on bugun faqat tabiiy boyliklari bilan emas, balki yangi sanoat klasteri, infratuzilmasi va turizm imkoniyati bilan ham yuksalib bermoqda. O'tgan 2025-yilda hududiy investitsiya dasturiga asosan sanoat, qishloq xo'jaligi hamda xizmat ko'rsatish yo'nalishida umumiy qiymati 104,6 milliard so'mlik 17 ta loyiha ishga tushdi. Natijada 114 ta yangi ish o'rni ochildi. Joriy yilda esa umumiy qiymati 155,5 milliard so'mlik 25 ta loyiha ishga tushadi. Pirovardida 170 ta yangi ish o'rni yaratilishi reja qilingan.

— 2025-yilda G'ozg'on shahrida xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha belgilangan reja 138 foiz bajarildi, — deydi G'ozg'on shahri hokimi o'rinbosari O'tkir Bo'ronov. — Xorijliklar bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilgan korxonalar hududning asosiy drayveri bo'lgan marmar va granitni qazib olish, qayta ishlash va tayyorlash ishlarini bajarilmoqda. Ushbu korxonalar mahsuloti, asosan, qo'shni davlatlarga eksport qilinadi va o'tgan yili uning hajmi 3 million dollardan oshdi. Ilgari G'ozg'on shahrida marmar va granitni qazib olish, qayta tayyorlash eski texnologiyalarga asoslangan edi. Hozir hududning salohiyati to'g'ri baholanib, investorlar jalb qilinaypti. Natijada yangi loyihalar bilan birga sohaga zamonaviy texnologiyalar ham kirib keldi. Bu esa mahsulot sifati, ishlash chiqarish hajmi va yangi ish

Hududlarda

G'ozg'on shahrida sanoat bilan birga boshqa yo'nalishlar ham jadal rivojlanmoqda. Shaharning qadimiy tarixi sabab turizm imkoniyatlari ishga solinib, hudud ulkan bunyodkorlik maydoniga aylangan.

G'ozg'on shahrining Shayxon mahallasidagi Shohimardon tarixiy obidasi 1908-1913-yillarda, Buxoro amirligida hukmronlik qilgan mang'itlar sulolasi davrida bunyod etilgan. Majmua O'zbekiston moddiy va madaniy merosining ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga



kiritilgan. Unga olib boradigan infratuzilmani yaxshilash maqsadida ichki xo'jalik yo'llari asfalt-beton qoplamasi yotqizilib, piyodalar uchun yo'laklar qurildi.

Shohimardon tarixiy-madaniy obidasi yaqinida bir necha ming yillik tarixga ega qadimiy qoyatosh bitiklari ham mavjud. Ayni jihat ko'plab xorijlik sayyohlarni o'ziga chorlaydigan yana bir qaynoq nuqta degani. Shuningdek, shaharda xizmat ko'rsatish sohasida yangi imkoniyatlar sabab salohiyat oshib bermoqda. Ushbu yo'nalishda ham istiqbolli loyihalar ishga tushirilmoqda. Bu, o'z navbatida, g'ozg'onlik

xotin-qizlar va yoshlarning bandligini ta'minlash imkonini bermoqda.

— Bugungi kunda G'ozg'on shahrida 9,5 ming aholi bor. Shundan 1800 nafardan ziyodini yoshlar tashkil etadi, — deydi G'ozg'on shahri hokimi o'rinbosari Ruslan Shodiyev. — Hozir shahrimiz ishsizlikdan xoli hududga aylanib bermoqda. Hududda 178 ta tabrikorlik subyekti faoliyat yuritib, aholi bandligini to'liq ta'minlash imkonini bermoqda. Shahrimizda ko'p tarmoqli markaziy poliklinika qurilyapti. Tibbiyot mutaxassislari yetishmasligi bois, ushbu yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida G'ozg'on shahri uchun alohida kvotalar berilmoqda. Bundan tashqari, yaqinda shahrimizda turizm ko'chasi tashkil qilinib, qator loyihalar yo'lga qo'yildi. Bu yerda ham, asosan, xotin-qizlar va yoshlar ish bilan ta'minlandi. Turizm ko'chasi joriy yilda ham yangi loyihalar ishga tushirilib, ish o'rnlari yaratiladi.

G'ozg'on zamonaviy shaharsozlik me'yorlari asosida butunlay yangi qiyofa kasb etmoqda. Toza ichimlik suvi 19 kilometr masofadan tortib kelindi. Ichki ko'chalarga asfalt yotqizildi. Ma'muriy bino va madaniy-maishiy inshootlar bunyod etilmoqda. O'tgan yili hududda qator yangi ijtimoiy soha obyektlari va sanoat korxonalari ishga tushdi.

— So'nggi yillarda G'ozg'on shahrida keng ko'lami qurilish ishlarini bajarildi va jarayon davom etmoqda, — deydi G'ozg'on shahri Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'lumi boshlig'i Nizomiddin Ahmadqulov. — G'ozg'on shahri yangi tashkil etilgandan keyin ma'muriy binolar qurish va infratuzilmalarni yaratish ehtiyoji bor edi. 2025-yilda hududda nuroniyalar maskani, adliya bo'lumi va prokuratura binolari qurilib, foydalanishga topshirildi. Shu vaqtda qadar hududda 2 qavatdan ortiq uy-joy yoki boshqa bino bo'lmagan. Ayni vaqtda ko'p qavatli uylar qad rostlamoqda. Muhimi, aholi bunyodkorlik ishlarini yangi infratuzilmadan mamnun.

Yangi O'zbekistonning yangi shaharchasi — G'ozg'on'da bugun ulkan bunyodkorlik maskaniga aylangan. Bu yerda amalga oshirilayotgan loyihalar aholi turmush darajasini yanada yaxshilash va hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan.

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Ilm-fan taraqqiyoti

KIBERNETIKA - ZAMONAVIY SUN'IY INTELLEKT POYDEVORI



Mirzoyan KAMILOV, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Davlatimiz rahbarining o'tgan yil 23-avgustdagi "O'zbekistonda ilm-fan, adabiyot, madaniyat va san'at sohalari rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan bir guruh marhum olim va ijodkorlarni mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, akademik Vasil Kabulov "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. U O'zbekistonda kibernetika fanining shakllanishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan yetuk olim, Fanlar akademiyasi Kibernetika institutining tashkilotchisi va birinchi direktori sifatida yuksak e'tirof etildi.



Anvarxo'ja QODIROV, Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti direktori

Mazkur institut 1966-yil 26-aprel kuni tashkil topgan bo'lib, shu kunlarda uning 60-yillik yubileyiga keng tayyorgarlik ko'rilmoqda. Jumladan, 15-16-aprel kunlari poytaxtimizda "Kibernetika — zamonaviy sun'iy intellekt poydevori" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani bo'lib o'tadi.

1968-yili institut bazasida o'tkazilgan "Chekli avtomatlar nazariyasi va mashinaviy tafakkur" nomli xalqaro konferensiya respublikamizda sun'iy intellekt yo'nalishidagi ilk ilmiy tadqiqotlarning boshlanishiga asos soldi. Mazkur konferensiya natijasida O'zbekistonda sun'iy intellektning eng muhim fundamental muammolaridan biri — tabiiy tili qayta ishlash sohasidagi dastlabki ilmiy izlanishlar yo'lga qo'yildi. Ushbu tadqiqotlar "tabiiy til — prediktor tili — elektron hisoblash mashinasi tili" ko'rinishidagi ketma-ketlikni formal tavsiflashga qaratilgan edi. Keyinchalik bunday formalizm ishlab chiqildi hamda ushbu til o'tishlarini amalga oshirish uchun matematik

ta'minotini ishlab chiqish ishlari boshlandi. Shu bilan birga, turli tartibli prediktorlar mantiqiga asoslangan teoremlarni avtomatik isbotlashning intellektual algoritmlarini yaratish bo'yicha ham ilmiy tadqiqotlar o'tkazildi.

Mazkur algoritmlarni amalda qo'llash maqsadida dasturiy ta'minot ishlab chiqilib, teoremlarni isbotlashda qo'llanadigan aksiomalarning to'liq tizimini shakllantirish yo'llari aniqlandi. Shunday qilib, ushbu muammolar yechimi bo'yicha erishilgan natijalar o'tgan asrning 60-yillari oxiridayoq respublikamizda sun'iy intellekt sohasidagi ilmiy tadqiqotlar shakllanganidan dalolat beradi.

Sun'iy intellekt bo'yicha izlanishlar rivojiga Kibernetika instituti olimlari tomonidan timsollarni tanib olish, ekspert tizimlari, tasvirlarni qayta ishlash hamda mantiqiy dasturlash yo'nalishlarida olingan fundamental va amaliy natijalar ham muhim turki bo'ldi. Ushbu yo'nalishlar bugun sun'iy intellekt

sohasining asosiy ilmiy yo'nalishlari sifatida e'tirof etilmoqda.

O'tgan asrning 70-80-yillari Kibernetika instituti faoliyatining yuksalish davri bo'lib, u kuchli ilmiy-texnik bazaga ega yirik ilmiy-tadqiqot muassasasiga aylandi. Bu davrda respublika avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi hamda taqsimlangan axborot-hisoblash markazlari tarmog'ini yaratish ishlari boshlandi. Institut huzurida Avtomatlashtirish va hisoblash texnikasi maxsus loyiha-konstruktorlik byurosi tashkil etilishi orqali to'laqonli ilmiy-ishlab chiqarish bazasini shakllantirishga asos solindi. Byuro negizida "Kibernetika" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Mazkur birlashma tarkibiga O'zbekiston Fanlar akademiyasi Kibernetika instituti, Avtomatlashtirish va hisoblash texnikasi bo'yicha maxsus loyiha-konstruktorlik byurosi, Respublika avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi bo'yicha maxsus loyiha-konstruktorlik byurosi, shuningdek,

tajriba-eksperimental zavod kiritildi. Keyinchalik ushbu birlashma tarkibida "Algoritm" hamda "Tizimli tadqiqotlar" ilmiy-tadqiqot institutlari tashkil etildi.

"Kibernetika" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi 3000 dan ortiq xodimni birlashtirgan edi. Ilm-fan va ishlab chiqarish boshqaruvini uyg'unlashtirishga qaratilgan bunday tuzilma respublikada ilk bor yaratilgan bo'lib, akademik ilm-fan doirasida o'ziga xos noyob model sifatida e'tirof etilgan.

Yosh mutaxassislar tayyorlash maqsadida "Kibernetika" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi ishtirokida qator oliyog'ohlarda kibernetika yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashgan fakultet va kafedralar ochildi. "Kibernetika" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi olimlari dolzarb yo'nalishlar bo'yicha ilmiy maktablar shakllantirdi. Ushbu ilmiy maktablar doirasida neft-gaz va konchilik sanoati, biokimyoviy ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni modellashtirish, axborotni tarmoqli qayta ishlash, texnologik jarayonlarni boshqarishning integratsiyalashgan tizimlarini yaratish, shuningdek, optimal va o'zini o'zi moslashtiruvchi tizimlar nazariyasi sohalarida masalalarni tahliliy va sonli yechishning yangi usullari ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda kibernetika fani hamda sun'iy intellekt sohasi rivojidagi navbatdagi muhim qadamlardan biri Prezidentimizning 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur hujjatga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida zamonaviy, yangi tipdagi Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi.

Yangi institut Kibernetika institutining tarixiy vorisi sifatida bugun raqamli texnologiyalar rivojining zamonaviy tendensiyalariga uyg'un holda, iqtisodiyot va ijtimoiy sohada modellashtirish, prognozlash hamda boshqaruvning murakkab masalalarini hal etishda sun'iy intellekt salohiyatini ro'yog'a chiqarishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni davom ettirmoqda. Bu boradagi tadqiqotlar Kibernetika institutida o'nlab yillar avval yaratilgan mustahkam ilmiy poydevorga asoslangan holda bajarilmoqda.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Ayni paytda institut olimlarining sa'y-harakati qator ilmiy muammolarni hal etishga qaratilgan. Kompyuterli ko'rish yo'nalishida biometrik parametrlar asosida shaxsni tanib olish, masofadan zondlash va tibbiy tasvirlarga ishlav berish, shuningdek, ulardagi obyektlarni tanib olish, tabiiy tili qayta ishlash yo'nalishida nutqni matnga, matnning nutqqa o'tkazish, nutq asosida shaxsni tanib olish, matnlarni intellektual tahlil qilish hamda o'zbek tili uchun katta til modellarini ishlab chiqish shular jumlasidan.

Qolaversa, raqamli texnologiyalar yo'nalishida aqlli tizimlar va buyumlar internetini rivojlantirish,

mashinaviy o'qitish yo'nalishida samarali tanib olish usullari va algoritmlarini yaratish, shuningdek, katta ma'lumotlarni intellektual tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish, chuqur o'rganish yo'nalishida neyron tarmoqlarni sintezlash, ishlab chiqish va takomillashtirish, ularning arxitekturalarini optimallashtirish hamda turli amaliy masalalarni yechishga moslashtirish ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, intellektual qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimlari yo'nalishida murakkab jarayonlarni tahlil qilish, tavsiyalar ishlab chiqish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishni avtomatlashtirish; sun'iy intellekt agentlari yo'nalishida bir nechta agent tizimlarning hamkorlikda ishlashi, birgalikda qaror qabul qilishi hamda murakkab vazifalarni samarali bajarish usullarini ishlab chiqish; xalqaro hamkorlikning sun'iy intellekt sohasidagi ustuvor yo'nalishlari asosida boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun amaliyotda talab yuqori bo'lgan innovatsion mahsulotlar — bazaviy modellar, algoritmlar va dasturiy ta'minotni yaratish maqsad qilingan.

Institutdagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, bir tomondan, sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish, jumladan, kompyuterli ko'rish, tabiiy tili qayta ishlash, qaror qabul qilishni intellektual qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlar bilan, ikkinchi tomondan, mashinaviy o'qitish va matematik modellashtirish usullarini takomillashtirish bilan bog'liq. Mazkur tadqiqotlar, avvalo, inson kabi turli vazifalarni bajarish, fikrlash, o'zaro ta'sirlashish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish qobiliyatiga ega, universal, ya'ni kuchli sun'iy

intellektni yaratish bilan bog'liq murakkab ilmiy-texnik muammoni hal etishga qaratilgan.

Institut olimlari jamoasi qator dolzarb fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni amalga oshirib, muhim ilmiy natijalarga erishdi hamda O'zbekistonda raqamli sohani rivojlantirishda amaliy qo'llanayotgan dasturiy mahsulotlar ishlab chiqdi. Bu esa institutning zamonaviy sun'iy intellekt texnologiyalari va axborot tizimlarini ishlab chiqish sohasidagi yetakchi ilmiy markazlardan biri sifatidagi mavqei yanada mustahkamlab, yangi O'zbekistonning barqaror innovatsion rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

SOG'LOM KELAJAK ASOSI



Oybek ERGASHEV, Namangan davlat texnika universiteti rektori, professor

Bugungi shiddatli davrda sog'lom millat va jismonan barkamol avlodni tarbiyalash nafaqat tibbiy masala, balki umummilliy harakat darajasiga ko'tarildi. Yaqinda davlatimiz rahbari raisligida jismoniy tarbiya va sport sohasiga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi ham aynan shu maqsadga — sohani yangi bosqichga olib chiqish, ommaviy sportni xalqimizning kundalik hayot tarziga aylantirish hamda seleksiya tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan bilan g'oyat ahamiyatlidir.



Kamolot pillapoyasi



Bundan tashqari, barcha ta'lim dargohlarida haftaning bir kuni "Sport kuni" deb e'lon qilinishi, yoshlar o'rtasida kross-fit kabi zamonaviy va ommabop mashg'ulotlarni keng yoyish orqali haqiqiy sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish vazifasi yuklatildi.

Shu o'rinda "mahalla — maktab — sport muassasasi — federatsiya" uzluksiz zanjirining ahamiyati beqiyos. Talabalarni sport to'garaklariga jalb etish orqali dual ta'lim asosida murabbiylar tayyorlash va ularga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish tizimi yo'lga qo'yiladi. Sohaga faqatgina jismoniy mashg'ulot sifatida emas, balki ilmiy yondashuv, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan ham qarash vaqti keldi.

Ushbu ustuvor vazifalardan kelib chiqib, Namangan davlat texnika universitetida sport yo'nalishidagi ishlar mutlaqo yangicha tizim asosida qayta tashkil etilmoqda. Biz talabalarning

ommaviy sport bilan qamrovini oshirish bo'yicha o'zimiz uchun aniq maqsad va ko'rsatkichlarni belgilab oldik. Universitetdagi mavjud sport to'garaklari faoliyati to'liq inventarizatsiyadan o'tkazilib, ularning natijadorligi doimiy monitoring qilib boriladi. Yoshlar orasida ommaviylashayotgan kross-fit va boshqa zamonaviy sport turlarini oliygohimizga kiritish orqali talabalarning faolligini va sportga qiziqishini yanada oshirishni maqsad qilganmiz.

Mavjud sport infratuzilmasidan foydalanish samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba sportchilarni kashf etib, ularni professional sport sari yo'naltirish kundalik ishimizga aylanadi. Hududiy sport tashkilotlari va federatsiyalar bilan hamkorlikni kengaytirib, yangi loyihalarni hayotga tatbiq etamiz. Zero, talaba yoshlarning sog'lom va jismonan barkamol bo'lib yetishishi ularning kelajakda o'z sohasining yetuk, fidoyi va kuchli mutaxassislari bo'lib yetishishida eng muhim poydevordir.



Hamkorlik

Yaqinda Malayziyaning Melaka shahrida O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Malayziya fan va ta'lim vazirligi, yurtimizning Malayziyadagi elchixonasi, Buxoro davlat texnika universiteti hamda Melaka texnika universiteti hamkorligida "Malayziya — O'zbekiston: birinchi xalqaro olim ayollar forumi" tashkil etildi.

MALAYZIYA - O'ZBEKISTON: BIRINCHI XALQARO OLIMA AYOLLAR FORUMI O'TKAZILDI

Inson hayoti, jamiyat taraqqiyotini xotin-qizlarning samarali faoliyatidagi tasavvur etib bo'lmaydi. Ayni paytda O'zbekistonda ilm-fan sohasida 6000 dan ziyod ayol faoliyat yuritmoqda. Oliyog'ohlarda tahsil olayotgan qizlar soni 904 mingdan oshib, jami talabalarning 54 foizini tashkil etyapti. Stajyor-tadqiqotchilar va doktoranturada tahsil olayotganlarning ham 61 foizi xotin-qizlardir. Bu esa yurtimizda ularning ilm-fan rivojidadagi o'rni, innovatsion g'oyalari hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishdagi ahamiyati oshayotganini ko'rsatadi. Mazkur hamkorlik ilm yo'lidagi

xotin-qizlarni yanada ruhlantirib, xalqaro doirada nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Tadbir doirasida keng ko'lami biznes-forum, shuningdek, O'zbekiston — Malayziya fan, ta'lim va madaniyat ko'rgazmalari tashkil etildi. Mazkur platformalar turli hududdan borgan oliy ta'lim muassasalari vakillariga ilmiy salohiyati, innovatsion ishlarni amalga oshirish imkoniyatlarini Malayziya auditoriyasiga keng namoyon etish imkonini berdi. Ko'rgazmalar davomida ikki davlatning boy tarixiy merosi, milliy qadriyatlari va o'ziga xos madaniyatini aks ettiruvchi rang-barang ekspozitsiyalar hamda zamonaviy



Sadoqat SIDDIQOVA, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

yondashuv asosida tashkil etilgan tematik tadbirlar namoyish etildi. Ko'rgazmalar forum ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otib, ilmiy va ta'limiy aloqalar bilan bir qatorda madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Forumning foydali jihati O'zbekiston va Malayziya oliy ta'lim muassasalari rektorlari, prorektorlari hamda delegatsiyalari faol ishtirok etib, samarali hamkorlikka asos yaratganida ham yaqqol namoyon bo'ldi.

Tadbirda ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan 30 ga yaqin muhim kelishuvga erishildi. Jumladan, Buxoro davlat texnika universiteti hamda Sulton Idris nomidagi ta'lim universiteti, Tun Husseyin Onn nomidagi Malayziya universiteti hamda Melaka texnika universiteti o'rtasida hamkorlik shartnomalari imzolandi.

Mazkur kelishuvlar oliy ta'lim tizimida tajriba almashish, qo'shma ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, akademik mobillikni oshirish hamda zamonaviy ta'lim dasturlarini joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu forum ikki mamlakat o'rtasida ilm-fan, ta'lim va innovatsiyalar yo'nalishida yangi bosqichni boshlab beruvchi muhim xalqaro platforma sifatida e'tirof etilmoqda. Bunga asoslangan yetarli. Chunki kelishuv va mulohazalar, amaliy harakatlar shunga asos yaratadi.



Ushbu masjid muhtashamligi, mahobati, jozibasi, go'zalligi bilan Makka, Madina, Abu-Dabi, Jakarta va yana ko'plab shaharlardagi masjidlardan aslo qolishmaydi.

YANGI O'ZBEKISTON



Mediatour



"AMALLAR NIYATLARGA BOG'LIQDIR"

Samarqandga birinchi marta o'tgan asrning yetmishinchi yillari oxirida — talablik paytimizda kursdoshlar bilan borganimiz va bu qadimiy shahardagi barcha tarixiy obidani hayrat bilan tomosha qilganmiz. Registon maydoni, Go'ri Amir maqbarasi, Bibixonim masjidi, Shohizinda majmuasi, Ulug'bek rasadxonasi va boshqa yodgorliklar o'zining salobati, haybati, go'zalligi bilan hammamizni maftun etgan. Shu bilan birga, ming yillarning guvohi bo'lgan bu muhtasham binolar asta-sekin nurab, xarob bo'lib borayotganiga achinish bilan qaraganmiz.



Tan olib aytishimiz kerak: o'sha paytda jurnalistika fakulteti talabasi bo'la turib, diniy bilimga ega emasdik. Sho'rolar konstitutsiyasida diniy e'tiqod erkinligi belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, ziyolilar, ayniqsa, yosh avlod bu masalada doimiy nazoratda edi. Masjidda borish, qabristonlarni ziyorat qilish sovet kishisiga xos bo'lgan fazilat edi. Ulug' muhaddislarimiz, diniy arboblarning haqida umuman ma'lumot berilmadi. Vaholanki, bir yarim ming yillik islom tarixini, ilm-ma'rifatinii yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk olimu ulamolarning asarlar, nomlarisiz tasavvur etish aslo mumkin emas.

Istiqloqling dastlabki yillaridan xalqimiz o'zining o'tmishini, bir necha asrlarga borib taqaluvchi davlatchilik tarixini, jahon ilm-fani va taraqqiyotiga hissa qo'shgan buyuk bobolari merosini, ular bosib o'tgan shonli yo'lni o'rgana boshladi. Qur'oni karimni, hadisi sharifi mutolaa qilish imkonini tug'ildi. Xususan, islom olamining buyuk siymolari Imom Buxoriy, Abu Iso Termezii, Burhoniddin Marg'iniy, Abu Mansur Moturidiy kabilarning asarlarini o'qish imkonini paydo bo'ldi. Xullas, asta-sekin tariximizni o'rganib, bobolarimizni taniy boshladik.

To'qsoninchi yillarning oxirida Samarqand viloyati Payariq tumanida "hadis ilmda mo'minlar amiri" degan sharafli nomga sazovor bo'lgan alloma Imom Buxoriy qabri atrofida majmua qurish ishlari boshlandi. Albatta, bu inshootning qurilishiga qiziqish juda kuchli edi. Chunki

mustaqillik yillarida birinchi marta din vakiliga shunday ulkan hurmat ko'rsatilyotgandi. Ilk bor u mangu qo'nim topgan manzil obod go'shaga aylantirilyotgandi.

Tez orada majmua o'sha davr talablariga munosib darajada barpo etildi. 1998-yili ulug' muhaddis tavalludining 1225-yilligi munosabati bilan tantanali ochildi. Shundan so'ng majmuani ko'rganii, Imom Buxoriy qadamjosiini ziyorat qilgani yurtimizning turli hududidan, xorijiy davlatlardan ko'plab mehmonlar kela boshladi.

Shu o'rinda bir savol tug'ildi: nega shuncha payt yurtidoshlarimiz uchun tabarruk bo'lib kelgan ziyoratgohni keyingi yillarda qaytadan qurish zarurati paydo bo'ldi? Bunga asos bormidi?

Ha, asos bor edi. Buning bir necha sababi mavjud. Avvalo, oradan salkam o'tiz yilga yaqin vaqt o'tdi. Davr silsilasida bino ta'mirlalab bo'lib, zamonaviy talablarga javob bermay qoldi.

Ikkinchidan, keyingi o'n yilda O'zbekiston dunyoga eshiklarini ochdi. Hozir jahonning yuzlab mamlakatidan yurtimizga millionlab sayyoh kelyapti. Ular o'lkamizda yashab o'tgan ulug' allomalar mangu qo'nim topgan manzillarni ziyorat qilishni istaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yili O'zbekistonga 11,7 million sayyoh kelgan. Bu 2024-yilga nisbatan 3,7 million ko'p degani. Boshqacha aytganda, bugun O'zbekiston sayyohlik eng tez rivojlanayotgan davlatlardan biriga aylandi. Ayniqsa, ziyorat turizmi yuqori sur'atda

o'sib borayotgan paytda barcha imkoniyatga ega majmualar kerak edi. Shuning uchun ham Prezidentimiz tashabbusi bilan Payariqda buyuk muhaddis bobomizning islom olamida tutgan yuksak mavqei, ulkan salohiyati, ulug' maqomiga munosib yangi majmua bunyod etildi.

"Muborak Ramazon hayiti arafasida buyuk vatandoshimiz, hadis ilmining sultoni Imom

Buxoriy hazratlarining ruhi poklariga yana bir hurmat-ehtirom bajo keltirmoqdamiz. Buxoriy bobomiz Qur'oni karimdan keyingi eng mo'tabar manba bo'lgan hadislar kitobini yaratib, butun islom olamida shuhrat qozongan ulug' siymodir. Muqaddas zaminimiz dunyoga mana shunday mashhur allomani bergani bilan har qancha faxrlansak, arzidi", dedi Prezidentimiz majmuaga tashrif chog'ida.

Yaqinda Turizm qo'mitasi va Jumalislilar uyushmasi tashabbusi bilan Imom Buxoriy majmuasiga mediatour uyushtirildi. Ommaviy axborot vositalari xodimlari hamda blogerlar majmuaning qurilish tarixi, ziyoratchilar uchun yaratilgan sharoit hamda imkoniyatlar bilan yaqindan tanishdi. Bu yerga kelgan sayyohlar bilan suhbatlashib, ularning fikrlari hamda taassurotlarini yozib olishdi.

Ushbu muhtasham va noyob ziyoratgoh bugun yangi O'zbekistonning ulkan imkoniyatlarini dunyoga namoyon etmoqda. Ushbu majmua yurtidoshlarimiz, shuningdek, dunyodagi barcha mo'min-musulmonlar uchun ezigulik va ma'rifat nurini taratuvchi ulug' maskaniga aylandi.

Binoga yondosh joydagi 15 gektar maydonda bitta to'rt yuldazli, ikkita uch yuldazli mehmonxonaga qurilib, zamonaviy infratuzilma yaratilgan. 176 o'rinni 22 ta oilaviy mehmon uyi va servis nuqtalari ziyoratchilarga yuksak saviyada xizmat ko'rsatmoqda.

Majmua kuniga 65 ming ziyoratchini qabul qilish quvvatiga ega. Ilgari bu ko'rsatkich 12 ming

edi. Ziyoratgoh 45 gektar maydonni egallagan. 10 ming kishiga mo'ljallangan ulkan masjidda Ramazon hayiti namozida 65 ming namozxon kelganining o'zi kelgusida bu majmua islom olamida eng tabarruk maskanlardan biri bo'lib qolishiga ishonch uyg'otadi.

Ushbu masjid muhtashamligi, mahobati, jozibasi, go'zalligi bilan Makka, Madina, Abu-



Dabi, Jakarta va yana ko'plab shaharlardagi masjidlardan aslo qolishmaydi.

Majmua tarkibidagi muzey mediatour qatnashchilarida katta taassurot qoldirdi. To'qqiz pavilyondan iborat, eng ilg'or axborot texnologiyalari o'rnatilgan bu noyob innovasion muzeyda muhaddislar sultonining hayoti va ilmiy merosi, islom ma'rifati rivojiga qo'shgan hisssasi to'la qamrab olingan. Muzeyda Qur'oni karimda ismi zikr qilingan 25 payg'ambar tarixi, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning shajarasi, hayoti, hadislarining jamlanishi va yozilishi haqidagi ma'lumotlar bor.

Ulug' muhaddis o'n yoshidan boshlab hadislarini mutolaa qilib, yodlagan va to'plagan. O'n olti yoshida onasi va akasi bilan Hijozga yo'l olgan. Qirq yil Makka, Madina Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlarda yashab, u joylardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ta'lim olgan. Shu yillarda u yayov va otiq 13 ming 900 kilometr masofani bosib o'tgan.

Mediatour davomida anchadan buyon o'yantirib kelayotgan bir savolga javob izldim.

Buyuk Sohibqiron bobomiz Amir Temur islom dini, shariat qoidalariga qat'iy amal qilgan, din peshvolariga chuqur hurmat ko'rsatgan, musulmon dunyosi birligini saqlashgan itilgan. Faqat Samarqanddagina emas, boshqa yurtlarda ham ko'plab masjid va madrasalar qurdirgan. Turkistonda Sohibqiron tashabbusi va mablag'i hisobiga qad rostlagan, mahobati bilan bugun ham ko'pchilikni hayratga solayotgan Ahmad Yassaviy maqbarasi gapimizga yaqqol misoldir.

Meni o'yantirgan savol bunday edi: Amir Temur Imom Buxoriy shaxsiga, qabriga e'tibor berganmi? Biror bino qurib qoldirganmi? Axir ulug' muhaddisning islom olamidagi o'rni juda yuksak ekanini buyuk sarkarda yaxshi bilardi-ku.

Majmua huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining qo'lyozmalar bilan ishlash va muzey bo'limi ilmiy xodimi Yo'ldoshxon Isayev bu savolga quyidagicha javob berdi:

— Amir Temur Imom Buxoriyni chuqur hurmat qilgan. Uning qabri ustiga maqbara ham qurdirgan va lekin yillar o'tishi bilan u yo'q bo'lib ketgan bo'lishi mumkin. Bu mening taxminim. Chunki allomaning qabri atrofida qazish ishlari bajarilganda u yerdan XV-XVI asrlarga oid g'ishtlar topilgan.

O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron "Tafakkur" jurnalining 2022-yil 2-sonida bosilgan "Sukunatni buzgan sas" maqolasida ivaanlik alloma Shayx Nadim al-Jisring 1956-yili Samarqandga, Imom Buxoriy qabri ziyoratiga kelgani haqida yozar ekan, o'sha paytda bu yerda xarob ahvoldagi masjid va maqbara bo'lganini aytadi. Xullas, bu masala hali tadqiqotchilar tomonidan to'la o'rganilishi lozim.

Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida bo'lganimizda Yo'ldoshxon Isayev yana bir gapni alohida ta'kidladi. Sharqda qo'lyozmalar asosan qamishda yozilgan. Lekin bizda ko'pincha kino, tasviriy san'atdagi tarixiy lavhalarda siyohdon yoniga qush patini chizishadi, qo'yishadi. Bu xato. Qush patini G'arbga, Yevropaga xos narsa. Markazda jurnalistlarni devorda osig'liq turgan bir papka surati ham qiziqirdi. "Bu jizgu, — dedi Yo'ldoshxon Isayev, — Bilasizlar, hozir rahbarlarga imzo uchun kiritiladigan hujjatlar maxsus papkaga solib, olib kiritiladi. Bu narsa bizda Buxoriy davrida bo'lgan. Tarixiy manbalar buni isbotlaydi. Mazkur suratda o'sha jizgu tasvirlangan. To'g'risini aytganda, yevropaliklar bu narsani ham Sharqdan o'rganishgan".

Davlatimiz rahbari bundan bir necha yil oldin Imom Buxoriy majmuasini bobomizning maqomiga, mavqega mos holda qayta qurish niyatida tashabbus ko'rsatgan edi. Ulug' muhaddis to'plagan sahit hadislar orasida "Amallar niyatlariga bog'liqdir" degan hadis bor. Prezidentimizning ushbu euzu niyati bugun amalga oshdi, muhtasham majmua qad rostladi. U minglab, millionlab ziyoratchilarni, sayyohlarni o'z bag'riga chorlamog'ya.

Bekkul EGAMQULOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Oramizdagi odamlar

SUV YOQALAB O'TAYOTGAN UMR

Suv hayot demakdir. Har bir tomchi suv ortida ko'rinmas mehnat, yurt rizqi va dehqon umidi mujassam. Ana shu ne'matni asrab-avaylash, har bir tomchisini manzilga yetkazish uchun umrini bag'ishlagan fidoyi insonlar bor.

Ulardan biri — "Mirza-Pay" irrigatsiya tizimi boshqarmasi kanallari katta muhandis-gidrotexnigi Obloql Abdulazizov. U o'tgan yili Prezidentimiz farmoniga muvofiq, "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandi. Fidoyi irrigator bilan yaqindan tanishish niyatida Jomboy tumanidagi suv inshootlari tomon yo'l oldik. Kanallar bo'ylab yurib, mo'jazgina suvchilar binosi yoniga yetib borganimizda odmigniga kiyingan bir kishi hafsala bilan daraxt butayotgani ustidan chiqdik. Salomlikdan so'ng u samimiy tabassum bilan:

— Kelingizlar, Obloql menman, — dedi. Rostini aytganda, bir oz hayron qoldik. Chunki uni juda sipo, jiddiy qiyofada tasavvur qilgan edik. Ammo ro'paramizda turgan kishining kamtarinligi va mehnatkashligi shundoq ko'rinib turardi. Obloql aka bilan birga suv yo'llari, kanallar, ariqlar, turli suv inshootlarini ko'zdan kechirar ekanimiz, u har bir suv yo'li haqida katta ishtiyiq bilan so'zlard. Qaysi ariq qachon qazilgani, qayerida suvning yo'li o'zgarigani, qayerida ta'mir kerakligi — barchasini batafsil tushuntirib berardi. Suhbat davomida qahramonimizning suv xo'jaligidagi 45-yillik tajribasi, chuqur

mulohazalari va mehnatga muhabbati yaqqol namoyon bo'lib borardi.

Eng muhimi, Obloql akaning samimiyati va insonparvarligi qalbimizda iliq taassurot qoldirdi. U jonkuyarlik bilan aytayotgan har bir so'zida suvning ahamiyatini yurt taqdiri, dehqon rizqi, odamlar hayoti bilan bog'lardi. "Suv bor joyda hayot bor", derdi har ikki gapning birida va obiyotning qadriga yetish kerakligini qayta-qayta ta'kidladi.

Ilk ko'rganimdayoq bu inson negadir menga yaponlarni eslatib yubordi. Chunki Obloql aka biz ko'mikkan "mukofot olgan" atoqli inson obraziga unchalik mos kelmasdi. Unda ko'tarinki dabdaba yoki rasmiy salobatdan ko'ra kamtarlik va mehnatga sadoqat ko'proq namoyon edi. Shu jihatlari bilan u kinolardagi mehnatkash, xokisor yapon qahramonlarini eslatardi: ishiga berilgan, ortiqcha so'zdan qochadigan, ammo qilgan ishi bilan katta hurmat qozonadigan inson. Qizig'i, Obloql akaning yoshi 60 dan oshgan bo'lsa-da, yigitlardek ephil, chaqqon. Kanal bo'ylab yurarkanmiz, ba'zan ortda qolib ketardim. U esa ildam odimlard.

— Kuniga 15-20 kilometr masofani piyoda bosib o'taman. Kanal va ariqlar zamonaviy suv o'lchash moslamalarini o'rnatganmiz. Shularni muntazam ko'zdan kechirib turaman. Ular suvni to'g'ri taqsimlash, tejashda juda qo'l keladi, — deydi qahramonimiz.

Qishloq xo'jaligi barqarorligi, yurt dasturxonini fayzu barakasi va umuman, hayotimiz farovonligi suvga bevosita bog'liq. Uni tejash

esa bugunning dolzarb vazifasi. Ana shu maqsadda qilinayotgan muhim ishlardan biri — ariq va kanallarni betonlashtirish. Bu haqda Obloql aka qimmatli fikrlarini bildiradi: "Ariq va kanallarni betonlashtirish O'zbekistonda suv resurslarini tejashning eng muhim va strategik yo'nalishlaridan. Hisob-kitoblarga ko'ra, betonlanmagan ariq va kanallarda suvning taxminan

36 foizi hech qanday iqtisodiy samara bermay, yer ostiga singib yoki bug'lanib ketadi. Bu esa katta resurs yo'qotilishi demakdir. Natijada suvga muhtoj dalalar, ekinzorlar va bog'rog'lar yetarlicha hosil bermaydi".

Suhbat davomida Obloql Abdulazizovning fikrlari, chuqur mulohazasida har tomchi suv uchun mas'uliyat tuyg'usi sezilib turardi.

— Bilasizmi, tuproq o'zanli ariqlarda suvning katta qismi yer ostiga singib ketadi. Beton qoplamaga esa bu yo'qotilishi 95-98 foizgacha kamaytiradi, — deydi hamrohim.

Uning aytishicha, ariqlarni betonlash nafaqat suvni tejash, balki ularni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Beton yuzasi silliq bo'lgani sababli suv oqimining gidravlik tezligi ortadi. Shu bois, suv manzilga tezroq yetib boradi. Suvning yo'lda kam vaqt sarflashi esa yana bir muhim omilga — bug'lanishning kamayishida juda muhim. Natijada bir tomchi suv ham qadrlil bo'lgan bugungi sharoitda har qatardan unumli foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Yana bir jihati shuki, betonlangan ariqlarda loqolanish va o't bosishi ancha kamayadi. Tuproq o'zanli ariqlarda esa suv oqimi bilan kelgan mayda cho'kindilar tez to'planib, ariqning o'tkazuvchanligini pasaytiradi. Bundan tashqari, o't-o'lanlar tez ko'payib, suv yo'lini to'sib qo'yadi. Beton qoplamali ariqlarda esa bunday muammo deyarli kuzatilmaydi. Shu



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-446.
30837 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Asliddin Abdurazzoqov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'ZA yakuni — 03:50